

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI INGLIZ TILI BO`LIMI**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

**Mavzu: Ayol siymosini yaratishda takrorlarning ekspressivlik mohiyati**  
**(Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romani misolida)**

**Ilmiy rahbar:**

**Qurbonova N.R.**

**Magistrant:**

**Tosheva Nafisa**

## Reja:

Kirish.

Bob I. Badiiy matnda ekspressivlikni ifodalovchi vositalar va takrorlarning tasnifi.

1.1. Ekspressivlikni ifodalovchi vositalar tahlili.

1.2. Takrorlarning tasnifi, uslubiy xususiyatlari va badiiy matndagi bo'yoqdorlikni ifodalashdagi roli.

Bob II. Teodor Drayzerning ayol siymosini yaratishda ekspressivlikni ifodalash maqsadida takrorlardan foydalanishdagi mahorati ("Amerika fojiasi" romani misolida).

2.1 Teodor Drayzerning hayoti va ijodiy faoliyati.

2.2 "Amerika fojiasi" romani XX asr Amerika orzusining xavf-xatarlarini ochib beruvchi shoh asar.

2.3 Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanida ekspressivlikni ifodalash maqsadida takrorlardan foydalanishdagi mahorati.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

**Kirish.**

Mamlakatimiz yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy va texnologik sohalarda hamkorlik qilishni avj oldirgan hozirgi davrda - har kungi hayotimizning barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar chet tilida, ayniqsa, dunyo tiliga aylanayotgan, ingliz tilida barcha janrda yozilgan matnlarni o'qib, tushuna olishlari, shu bilan birga barcha sohada tegishli matnlarni yoza olishlarini davr taqozo etayapti. Shunday ekan, ingliz tilining grammatikasi, leksikasi, fonetikasi bilan birgalikda uning uslubini, ya'ni stilistikasini ham bilish zarurdir.

### **1. Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi.**

Mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi, "Ayol siymosini yaratishda takrorlarning ekspressivlik mohiyati (T.Drayzerning "Amerika fojiasi" romani misolida)", til uslubiyati va adabiyoti orasidagi ilmiy tadqiqot bo'lganligi uchun ham dolzarbdir.

Chunki til uslubiyatini badiiy matnlarda tadqiq etish badiiy adabiyotsiz amalga oshmaydi, chunki til uslubiyati badiiy matnning jozibadorligi, bo'yoqdorligi, ta'sirchanligi, obrazlilik, jonli tilga ega bo'lishi uchun ahamiyati katta. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni til uslubiyatidan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi, til uslubiyatiga e'tibor berilmasa matn badiiy matn bo'la olmaydi.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik, ekspressivlik va obrazlilikni ifodalaydigan uslubiy vositalardan biri takrorlar orqali ayol siymosini yaratishdagi muallif mahorati tahlil etiladi. Xususan, madaniy sohada faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislarimiz ekspressivlikni ifodalaydigan hodisalarni bilmay turib, ingliz tilida yozilgan badiiy matnlarning, maqollarning, hikmatli so'zlarning, prozaning tub ma'nosini, muallif nima demoqchi bo'lganini tushuna olmaydilar.

### **2. Ilmiy tadqiqot ishining o'rganilganlik darajasi.**

T.Drayzerning "Amerika fojiasi" romanida ayol siymosini yaratishda takrorlarning ekspressivlik mohiyati mavzusida tadqiqotlar va izlanishlar olib borishdan oldin biz ko'plab adabiyotshunos olimlar va tanqidchilarning shu

mavzuga yaqin bo'lgan ilmiy maqolalari va ilmiy asarlarini o'rganib chiqdik. Bu olimlar qatoriga biz Засурский, Карчевская, Николаев, Сухаренко, Bronkovich, Parchevskaya kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

### **3. Ilmiy tadqiqot ishining yangiligi.**

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romanida ekspressivlikni ifodalaydigan uslubiy vositalardan biri takrorlar yordamida ayol obrazini yaratishda muallif mahorati birinchi marta tadqiq etilmoqda. Mazkur ishda "Amerika fojiasi" romanida ishtirok etgan sakkiz nafar turli tabiatli va xususiyatli ayol siymolarini yaratishda takrorlarning ekspressivlikni hosil etishdagi ahamiyati tadqiq etildi va juda qiziqarli natijalarga erishildi. Bu lavhalar ilmiy tadqiqot ishi 2-bobining 2.2., 2.3. fasllarida namoyish etildi.

### **4. Ilmiy tadqiqot ishining metodologik asoslari va tadqiqot metodi.**

Ilmiy tadqiqot ishining metodologik asoslariga K.Vanspenkerenning "Amerika adabiyoti asoslari", Samoxvalov N.N. ning "Istoriya amerikanskoy literaturi" va "Pisateli S.SH.A. o literature", Galperin I.R. ning "Stylistics", Arnold I.V. ning "Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika", Boboxonova L.T. ning "Ingliz tili stilistikasi" kabilar kiradi.

Mazkur ilmiy tadqiqot deskriptiv metod asosida olib borildi. Romanda ishtirok etgan ayollar siymosini yaratishda monologik, dialogik nutqlar muallifning individual ichki savol-javoblari, tabiat manzaralarining tasviri tadqiqot asosini tashkil etdi.

### **5. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy manbalari.**

Galperin I.R., Arnold I.V., Boboxonova L.T., Mirtojdiyev M., Qo'chqortoyev I.Q., Qilichev E.R., Zasurskiy Ya.N., Suxarenko R., Nikolayev A., Menshova I., Nabakov V., Azimov Q., Qayumov O., Izzat Sulton, Boltaboyev H., Katheryn Van Spanckeren, Lehan Richard, Pizer Donald, Helen Dreiser, Menken H.L., internet saytlari hamda Teodor Drayzerning 1951-yilda nashr qilingan "Amerika fojiasi" nomli 2 tomlik asari va ushbu asarning Erkin Nosirov tarjimasidagi o'zbek tilidagi varianti mazkur ilmiy tadqiqot ishini yozishda asosiy manba vazifasini bajardi.

## **6. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi.**

Amerika yozuvchisi, Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida ayol obrazini yaratishda ekspressivlikni ifodalash uchun qo’llanilgan takrorlar ishlatilgan misollar, lavhalar, maqollar, hikmatli so’zlarni tanlab olib, ularning badiiy matndagi obrazlilik, bo’yoqdorlik, ta’sirchanlikni ifodalashdagi muallif mahoratini namoyish etib, romandagi ijobiy va salbiy ayol obrazlarini tadqiq qilish **mazkur ishning maqsadini** tashkil etadi.

### **Ilmiy tadqiqot ishining vazifalari.**

Qo’yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

1. Ekspressivlikni ifodalovchi vositalarni tahlil etish.
2. Takrorlarning to’liq tasnifini berish.
3. Takrorlarning uslubiy xususiyatlarini tahlil etish.
4. Teodor Drayzerning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va “Amerika fojiasi” romanini yozish uchun unga zamin tayyorlagan omillarni o’rganish.
5. Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida ayol siymosini yaratishda ekspressivlikni ifodalash maqsadida takrorlardan foydalanishdagi mahoratini roman matni asosida namoyish etish.

### **7. Ilmiy tadqiqot jarayonida erishilgan natijalar.**

Romanning boshidan oxirigacha voqeada faol ishtirok etgan sakkiz nafar ayolning siymosini yaratishda takrorlarning ekspressivlik mohiyati o’rganildi va muallifning takrorlarning hamma turlaridan ustalik bilan foydalanganligi ilmiy tadqiqot matnida namoyish etildi. Va ushbu magistrlik dissertatsiyasini tadqiq qilish jarayonida “So’z ustasi va san’atkori T.Drayzer romanlarining tili” nomli maqola “Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinonimiya, diaxroniya” Buxoro, 2011 to’plamida chop etildi.

### **8. Ilmiy tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati.**

Mazkur ilmiy tadqiqot ishidan ingliz filologiyasida ta'lim olayotgan bakalavr va magistrlik bosqichidagi talabalar va yosh mutaxassislar til uslubiyati va adabiyot fanlaridan malakaviy-bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi yozish jarayonida nazariy va amaliy manba sifatida foydalanishlari mumkin.

### **9. Ilmiy tadqiqot ishining strukturasi.**

Mazkur ilmiy tadqiqot ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bob I. Badiiy matnda ekspressivlikni ifodalovchi vositalar va takrorlarning tasnifi.

### 1.1. Ekspressivlikni ifodalovchi vositalar tahlili.

So'zning semantik strukturasi o'rganish va konnotativ ma'nolarni chegaralash, ularning nutqda voqelanishi, til vositalarining o'rni, qiymatini hamda vazifasini belgilash bo'yicha qator ilmiy ishlar yaratilgan. Bu masalaga bag'ishlangan ishlar anchagina. Bu sohada Sh.Balli, N.V.Arnold, I.R.Galperin, A.U.Smirnitskiy, o'zbek tilshunosligida esa A.G'ulomov, E.Qilichev, M.Mirtojiev, A.Abdullayev, G.Yaxshiyeva, H.Yo'ldosheva kabilarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir. Ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning uslubiy xususiyatlari bayon qilingan bu tadqiqotlarda ana shu uslubiy imkoniyatlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) birliklarining konnotativ ma'nosi tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolmoqda. Bunday tadqiqotlarda asosan ekspressivlikni ifodalovchi vositalar orqali nutqda ta'sirchanlikka erishish masalasi muhim hisoblanadi.

Ingliz tilida ekspressivlikni ifodalovchi vositalarga asosan ifoda vositalari (Expressive Means) va stilistik usullar (Stylistic Devices) kiradi.

Ifoda vositalari (Expressive Means) o'z navbatida bir nechta turlarga bo'linib, ularning birinchisi fonetik ifoda vositalaridir.

Badiiy asarlar va ularning tarjimalarida fonetik vositalarining uslubiy vazifa bajarib, matnning emotsional ta'sirchanligini oshirishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tovushlarni cho'zib talaffuz qilish, biri o'rnida ikkinchisini qo'llash orqali ma'no kuchayishi, ta'kid, ajablanish, hayajon, kinoya kabi ma'no nozikliklari ifodalanishi mumkin. Adiblarning o'ziga xos ifoda usuli, individual bayon tarzi ham aynan ana shu ohangdorlikda ko'rinadi.

Yozuvchilar va shoirlar she'riy asarlarga xos bo'lgan texnik vositalar-ritm, qofiya, turoq kabilardan keng foydalanadilar.

Endi ushbu fonetik hodisalarga alohida-alohida to'xtalamiz.

Qofiya (rhyme) bir turdagi yoki bir-biriga o'xshash tovushlar birikmasining so'z oxirida kelishidir.<sup>1</sup> Qofiyaning ahamiyati juda katta. Qofiya she'rni tashkil

---

<sup>1</sup> Голуб И.Б. Стилистика современного русского языка. Лексика-фонетика-М., 1976. стр. 134.

etadi, ya'ni uni nasrdan farqlaydi, hamda ohangdorlikni yuzaga keltirib, she'riy nutqni ohangdor va ta'sirchan qiladi. Masalan: hay, day, play, clay, measure, pleasure.

Yuqoridagi so'zlarni tahlil qilsak, oxirgi tovushlarning bir-biriga qofiyalanib qolganini ko'ramiz. Quyidagi she'riy parchalarda ham ingliz va o'zbek tillarida so'zdagi oxirgi tovushlarning qofiyalanib qolganligini ko'rish mumkin.

It was many and many years ago, in a kingdom by the sea,

That a maiden there lived whom you many know.

By the name of Annabel Lee.

And this maiden she lived with no other though.

Then to love and be loved by me. (E.A.Poe)

Ba'zan she'rda uning asosini tashkil etuvchi so'zlar qofiyalanadi. Bunday qofiya she'rning g'oyasini ifodalash vositasi sanaladi.

Ko'pgina maqol va matallar qofiya qo'llanishi asosida yaratilgan. Bu qofiyalangan tarjimalar, turli maqsadlarda qo'llanadi. O'zbek tilida esa qofiya doston, she'riyatda ko'p qo'llaniladi:

Oltin edim, cho'yan bo'ldim,

Dono bo'ldim, somon bo'ldim.

Qimmat edim, arzon bo'ldim,

G'amga qolgan ravshan bo'ldim.

She'riy parchadagi cho'yan, somon, arzon, ravshan so'zlari qofiyalangan. Badiiy asarlarda personaj nutqida fonetik o'zgachalikni uslubiy vosita sifatida qo'llash asar qahramonining emotsional holatiga badiiy bo'yoq berish, tasvirning ta'sirchanligini oshirishda asar badiiyligini ta'minlovchi fonostilistik vositalardan biri hisoblanadi.

Nutqda bir tovushni ikkinchi tovush bilan almashtirish ham uslubiy vazifa bajaradi. So'zdagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik, biri o'rnida ikkinchisini qo'llash, ko'pincha bolalar nutqiga xosdir. Bolalar nutqiga xos bo'lgan ravon tovush almashinishi hodisasidan yozuvchilar ekspressivlikni ifodalovchi vositalardan biri sifatida ustalik bilan foydalanadilar.

Shuningdek, yozuvchilar o'z asarlarining ekspressivligini ya'ni ta'sir kuchini oshirish maqsadida asar personajlarining nutqiy kamchiliklar bilan aytilgan fikrlarini aynan keltiradilar.

Yozuvchi A.Xasanning "Mutavalining qo'l bola shaytonlari" asaridan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik.

Asar qahramonining asli nomi Sodiq, u duduqlanib gapirgani uchun Qanoat uni duduuq deb ataydi. Kunlarning birida Duduq Qanoat bilan uchrashadi.

- S- Salom, Q- qanoat!
- Q- qqanoat, s- senda ham k- kaptar b- bormi?
- Yo'q,-dedi Qanoat-Davronda ko'p, Senda-chi?
- Shu-shu m-menikida q-qirqta dedi u.

Xuddi shunday misolni mashhur ingliz adibi E.L.Voynich qalamiga mansub "The Gadfly" ("So'na") asarida ham uchratish mumkin.

- "Whatever have you get there? Chocolate creams and English tobbu!
- Who this is l- luxiry for a king!
- R- r- really? Well you must get him. S- some more tomorrow and give me these to take with me, No, let me p- p- put the toffee in my pocket" kabi.<sup>1</sup>

Kutilmaganlik, qo'rqish, dovdirash yoki kuchli g'azab kabi ekspressivlikni to'la aks ettirishda ham undosh tovushlar personaj nutqida ikkilantirilishi mumkin.

Masalan, Malikjon dovdirab qoldi:

- As- salom- m, dedi tutilib k- keling.
- Sarah was shocked by seeing this scene: What h- h- hap- p- pened here? W- why everything is in a m- mess!

Undosh tovushlarni so'z o'rtasida ikkilantirib talaffuz qilish hodisasi ma'no kuchaytirish bilan birga ayrim holatlarda satirik vaziyat yaratish uchun xizmat qiladi.

Masalan: Terakning **uchchida** turibdi. **Qizzingni boshshinga** ur.

---

<sup>1</sup>E.L.Voynich. "The Gadfly".-M.:1958. p.242.

Ushbu misoldagi “chch”, “zz”, “shsh” undosh tovushlar geminatsiyasi ma’no kuchaytirish bilan birga birinchi bo’g’inining o’zak vokalizmini mustahkamlash uchun xizmat qilgan.

Undosh tovushlarni ikkilantirib talaffuz qilish va yozish, ayniqsa, olqish va qarg’ish bildiruvchi leksik birikmalar tarkibida ko’p uchraydi. Bu hol so’zni alohida intonatsiya bilan aytishni talab qiladi. Ayni zamonda shu so’zdagi ijobiy va salbiy ma’noga tinglovchi diqqatini faolroq jalb etadi.

So’zda undosh harflarning tushurib qoldirilishi, bo’rtirilishi, ikkilantirishi, cho’zilishi kabi hodisalar yordamida yasalgan asar yoki she’r tez esda qolishida-tovushlar ohangdorligi, ularning ma’lum bir zarb bilan atilishi ritim jihatdan uyushganligi katta ahamiyatga ega.

Ingliz tilidagi ekspressivlikni ifodalovchi ifoda vositalaridan ikkinchisi leksik vositalardir (Lexical expressive means).

So’z yasashning eng qulay va keng tarqalgan usullardan biri affiksatsiya usulidir.

Ingliz tilida ham shunday suffikslar mavjudki, ular faoliyatni bildiruvchi qo’shimchalar bo’lib, ot va sifat yasaydi.

Jumladan: - er suffiksi. Teacher, singer (ot yasovchi ). Longer, shorter (sifatlarda qiyosiy daraja qo’shimchasi).

- ing: herring, building (ot yasovchi)
- ing: sifatdosh I va gerundi qo’shimchasi: playing, reading
- ed: - sifat yasovchi qo’shimcha bo’lib, qo’shma sifatlar hosil qiladi. – long – legged; knotted, black – haired.
- ed: to’g’ri fe’llarni yasovchi qo’shimcha : loved, worked, played
- en: narsa buyumlarning belgisini ifodalovchi sifatlar: wooden, golden, woolen.
- en: kuzativ fe’llar yasovchi qo’shimcha strengthen, lengthen.
- en: sifatdosh: broken, spoken.
- en: ko’plik ot qo’shimcha: oxen.

Ular matnning jozibadorligi, badiiy bo'yoqdorligi, qiyosiy ta'sirchanligini oshirishda muhim uslubiy vosita vazifasini o'taydi.

Ekspressivlikni ifodalovchi vositalardan yana biri bu morfologik ifoda vositalaridir. Bunda fe'l asosiy rol o'ynaydi. Fe'ning semantik – dramatik hamda uslubiy jihatdan katta uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligidan ham adiblar o'z asrlarining jozibadorligini ta'minlashda foydalanadilar. Fe'ning boshqa kategoriyalari qatorida fe'l yasalishidagi ayrim o'zgachaliklar ham fe'ning uslubiy xususiyatlarini yuzaga chiqarish qator semantik-gramatik bo'yoqdorliklarni ifodalashi mumkin. – la affiksi “Fe'l yasovchilar” ichida eng mahsuldor bo'lib, fe'ldan boshqa barcha turkumga oid so'zlardan fe'l yasab bo'ladi. Biroq manbalarda – la affiksi orqali aylanma harakat fe'llari yasalishi kuzatilmaydi.

Badiiy asarlarda yozuvchilar – la affiksi orqali mavjud so'z yasash imkoniyatidan foydalanib, o'zakdan anglashgan o'rin-joy otlaridan aylanma harakatni ifodalovchi ko'pgina so'zlar yaratadilar va ulardan o'z asarlarining ta'sir kuchini oshirish maqsadida foydalanadilar. Shu usul bilan ko'chalayman, tomladim, minbarlarda, dalalarda, soyalaydi kabi so'zlar adib asarlarning tilini jozibadorligini oshirishga, qat'iy – ta'sirchanlikka erishishga personajlarning, individual karakterini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yozuvchilarning asarlaridagi fe'l vazifaviy shakllarining uslubiy xususiyatlarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega badiiy asarlarda yozuvchilar sifatidagi, ravishdagi harakat nomining arxaik va shevaga xos shakllaridan ham unumli foydalanadilar.

Ma'lumki, takroriy so'zlar, odatda ma'noni kuchaytirib, uslubiy bunyodkorlikni yuzaga chiqaradi. Buni quyidagi she'riy parchadan anglab olsa bo'ladi:

Our hands have met, but not our hearts;

Our hands will never meet again.

Friends, if we have ever been

Friends we cannot now remain

I only know I loved you once,

I only know I loved in vain.

Our hands have met, but not our hearts;

Our hands will never meet again. (Thomas Hood)

Takror stilistik vosita sifatida o'quvchining diqqatini jalb etish uchun qo'llaniladi.

Ikki narsa erur umrimda oftob:

Bu she'r, bu yana muhabbat.

Ikki narsa erur umrimda azob:

Bu she'r, bu yana muhabbat.

Badiiy asarda fonetik, leksik va Grammatik birliklarning turli maqsadlarda takrorlanishi badiiy takror sifatida muayyan uslubiy vazifa bajaradi. Takror ma'noni kuchaytiruvchi, badiiy asarning ekspressivligi, tasviriyligini belgilovchi omillardan biridir.

Odatda, takrorlar ko'proq she'riy matnda kuzatiladi. Yozuvchilar o'z asarlarida she'riy takrorlardan, ko'proq she'riy unsurlarning mavjudligi xususida to'xtalib o'tishga undaydi. Adiblar, xususan, badiiy takrorlarning o'ziga xos individual planlaridan keng foydalanadilar.

Shunday qilib, badiiy asarlarda personaj nutqida fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalardan o'rinli foydalanish asar qahramonlarining emotsional holatiga badiiy bo'yoq berish, tasvirning ta'sirchanligini oshirishda, asar badiiyligini ta'minlovchi ekspressivlikni ifodalovchi vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilida ekspressivlikni ifoda vositalari bilan bir qatorda stilistik usullar ham ifodalaydi. Ular orasidan takror stilistik figurasi haqida kengroq to'xtalamiz, chunki magistrlik dissertatsiyamizning mavzusi asosan shu stilistik usulga bag'ishlangan. Bir xil yoki bir-biriga yaqin tovush birliklarining badiiy nutqda takrorlanish hodisasi takrordir.<sup>1</sup>

Fonetik takror ayrim tovushlarning misralar-aro takroriga asoslanuvchi stilistik figuralar: anafora, epifora, alliteratsiya, assonanslarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка.-М., Просвещение 1990. стр.209-211.

Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik-stilistik figura bo'lib hisoblanadi. Tovush takrori termini dastlab O.Brik tomonidan kiritilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik bu atama poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'ldi.

Unli tovushlar takrori, undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori kabilar xalq og'zaki ijodi namunalarida, poetik nutqda ko'p uchraydi. Fonetik takror, asosan badiiy nutq uslubiga xosdir. Fonetik unsurlarni ataylab takrorlash orqali muallif o'z tasvir kuchini oshirishga, his-tuyg'ularni bo'rttirib ifodalashga erishadi.

Tovush takrori, ayniqsa, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tasvir ob'yektiga ko'proq jalb qilish uchun ishlatiladi.

Takromning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish, fikrni konkretlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir.

Takromning sintaktik-stilistik xususiyatlari haqida tilshunoslardan I.M.Astafiva, M.N.Adilovlar maxsus monografik tadqiqotlar olib borganlar.

Takror (repetition) nutqning og'zaki shakli xususiyatiga asoslangan sintaktik-stilistik vosita bo'lib, bu hayajonli holatni ifodalash maqsadida qo'llaniladi.

Emotsional nutq qisqaligi, mantiqliligi va bayon qilinayotgan fikrning ayrim bo'laklari takrorlanishi bilan ajralib turadi. Takror stilistik vositasining ishlatilishi tabiiy bo'lishi lozim hamda ma'lum bir so'zlar takrori gapda so'z o'yinini yaratadi. Shunday qilib, ingliz tilida mavjud bo'lgan takror stilistik vositasining turlari o'zbek tilida ham bor. Ingliz tiliga nisbatan o'zbek tilida takror san'ati kengroq o'rganilgan.

Misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanilishi alliteratsiya (alliteration) ga olib keladi. Badiiy takromning bir ko'rinishi bo'lgan alliteratsiya turli tillar poeziyasida qadimdan qo'llanilib kelinadi.

She'riyatda va nasriy asarlarda alliteratsiya orqali obrazlilik va ta'sirchanlik bo'rttiriladi, uslubiy ravonlik, so'zlarning ohangdorligi vujudga keltiriladi. Alliteratsiya qator boshida uchrashiga ko'ra gorizontaal va vertikal yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Alliteratsiya boshqa tovushli vositalar kabi vosita tarzida gapdagi asosiy mazmunga ohangdorlik baxsh etadi, ma'lum bir darajada o'quvchining diqqatini jalb qiladi va gapning emotsional ta'sirini oshiradi.

Alliteratsiya mustaqil ma'noga ega emas, uning vazifasi tovushli ta'sir yaratishdir. Lekin ba'zan tovushli tasvirlarni his-hayajon va qayta ifoda etish mumkin.

Agar alliteratsiya shu vazifada ishlatilsa, unga ma'lum bir qo'shimcha ma'no paydo bo'lishi mumkin. Masalan: Secret and self-contained and solitary as an oyster (Ch.Dickens)

The possession instinct news stands still. Through florescene and fend frosts and fires it felons the lens of progression (J.Galsworthy)<sup>1</sup>

Deep in to the darkness pleurisy, long I stood there wondering, fearing, doubling, dreaming, dreams no mortals. War dared to dream. (E.A.Poe)

Alliteratsiya she'riy misralar boshida kelib, tovushlar uyg'unligini hosil qiladi. Ingliz tilida Tennysonning "The Bonus Eaters" she'ridan quyidagi parchani keltiramiz.

How sweet it were...

To lend our hearts and spirits wholly

To the music of mild minded melancholly

To muse and brood and live, again in memory

O'zbek she'riyatidan F. Muryoning quyidagi to'rt misra she'ri konsonant alliteratsiyaga misol bo'ladi:

Siz – dilkash, dilkusho, dilafso'z

Biz – dilshod, dilobar, dilbasta

Siz – dilkash, dilnavoz va dilfuz

Biz – dilkun, dilafgor, dilxasti.

Shuningdek, alliteratsiya xalq maqollarida, og'zaki so'zlashuv janrida uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Masalan: Ingliz tilida:

---

<sup>1</sup> Galperin Stylistics. Moscow, Higher School-1977. p.126.

for. ex: Tit for tat; blind as a bat; betwixt and between; I fess neck or nothing;  
to rob Peter to pay Paul:

O'zbek tilida: Qildan qiyiq qidirma; Sanamay sakkiz dema; Sochilgan sochingdek sochilsa siring kabi.

Alliteratsiyadan badiiy asarlar nomlari va gazeta maqolalarining nomlarida ham qo'llash mumkin.

for ex: Sense and Sensibility, Pride and prejudice; Serve for scandal a book of fable and phrase.

Ko'rinadiki, tovushlar takror asosida yaratilgan asarlarni o'qish o'quvchini zeriktirmaydi. Fonostilistik jihatdan esa nutqda tilning tovush va mazmun yaxlitligi asosida ma'lum bir syujet yaratilganligi ahamiyatlidir.

Shunday qilib, o'rni bilan ishlatilgan fonetik takrorning turli ko'rinishlari badiiy ta'sirda muhim lingvopoetik hodisa bo'lib, musiqiylik, ritm va ohangdorlikni ta'minlaydi. Ayni holatda, ijodkorning ruhiy kechinmalarini ham aks ettiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tovush takroriga asoslangan, qofiyalanib kelgan ingliz she'riyatidan namunalar keltirib tahlil qilamiz:

The Cataract of Ladore

(by Robert Southey)

Here it comes sparkling,

And there it lives darkling...

Eddying and whisking?

Spouting and frisking

And whizzing and hissing

And ratthing and bathing

And gurgling and struggling

And bubbling and trousling and doubling

Yuqorida keltirilgan she'riy parchalar tahlil qilinganda qofiyadagi so'zlarning kelishi she'rning musiqiyliigi va ohangdorligini ta'minlagan. Keltirgan birinchi parchada bir xil tovush kompleksiga ega bo'lgan eparkling, darkling, whisking,

frisking, hissing, battling so'zlari qofiyalanib kelib, she'ning simfoniyasini uning garmonik rivojlanishini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, takror, ayniqsa, tovushlar takroriga asoslangan fonetik takror til stilistik resurslarining boyish manbaalaridan biri bo'lib, so'zlovchi o'z sezgilariga iboraning mos emasligini anglab, sifatni miqdor bilan to'ldirishga harakat qiladi. Bu esa takroni yuzaga keltiradi.

Takror ma'noni kuchaytiradi, intensivlik hosil qiladi va emotsionallikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qilingan she'riy parchalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, shoir tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning nazarga tutilgan tomoniga o'quvchi diqqatini tortish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish, uni bo'rttirib ko'rsatish niyatida ko'proq she'riyatda ayrim tovushlar va tovushlar birikmasiga, so'z yoki gaplarga urg'u beradi, takrorlaydi. Ishimizda biz ko'proq umuman takror hodisasining uslubiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

Ushbu hodisaning mohiyatini yanada ochiq va yorqin tushunish uchun takrorning bir necha turlari: anafora, epifora, alliteratsiya, onamatopiya kabilarni tushunishga, ularni imkon qadar tahlil qilishga harakat qildik.

Shu narsaga amin bo'ldikki, fikrni obrazli bayon etish, she'rxonga zavq bag'ishlash, mazmunning teranligi va shaklini jozibali bo'lishida she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalanish muhim uslubiy vosita ekan. Takror ma'noni alohida ta'kidlash; ajratib va bo'rttirib ko'rsatish bilan birgalikda "til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi" ni ham bajaradi.<sup>1</sup>

Takror san'atiga asoslangan alliteratsiya nafaqat she'riyatda, balki nasriy asarlarda ham uchraydi.

Masalan ingliz yozuvchisi Charlz Dikkensning asaridan olingan quyidagi parchaga diqqatimizni qarataylik:

-A smile would come into Mr.Pickwick's face: the smile would extended into a laugh into a roar and the roar became general.

---

<sup>1</sup> Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. T., 1996, 22-bet.

O'zbek tilida alliterativ "o'yin" asarida yaratilgan kitobxonlar uchun bir qadar qiziqarli bo'lagi Murod Xidirning "Qorashaqshaqning qizilishtonni quvlab qolgani" hikoyasini keltiramiz:

"Qizilishton qiyalama qirdagi qayrag'ochni qurmagan qurt-qumursqa qo'shilishi qayratayotdi. Qayrag'ochga qo'nib qo'qqaygan qari qorashaqshaq qurt-qumursqalarni qirayotgan qizilishtonga qarab-qarab qo'ydi. Qorashaqshaq qarib, qartayib qolganiga qaramay, qizilishtonga qo'rslik qildi:

Qirmizishtonga qaraganda, qirolu-qirolichalardek qiyshanglaysan, qiyqanglaysan, qilpanglaysan, qilchillaysan..." ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi).

Har ikkala tilda keltirilgan nasriy asardagi parchalardan ko'rinadiki, tovush takrori asosida yaratilgan hikoya o'quvchini zeriktirmaydi, balki shaklan bir xil bo'lgan tovushlarning so'zlar boshida takrorlanib kelishi ohangdorlikni hosil qilgan.

Shunday qilib, tilning ifodaviylik (ekpressivlik) xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslikning bir sohasi bo'lgan stilistikada nutq uslublarida ifodalangan qo'shimcha ma'nolar tahlil etiladi.

Biz ham ushbu magistrlik dissertatsiyasida sintaktik – stilistik vositalardan biri – takror haqida fikr yuritib, takror og'zaki nutqning shakli bo'lib, u hayajonli holatni ifodalash maqsadida qo'llaniladi.

Uning asosiy vazifasi nutqning ta'sirchanligini ta'minlash ekanligini misollarda tahlil qildik. Tahlil jarayonida shunga alohida e'tibor qaratildiki, ingliz tiliga nisbatan o'zbek tilida takror san'ati kengroq o'rganilgan. Buning yorqin misoli V. Isqoqov mumtoz she'riyatda bu san'at tarmoqlarining ellikdan oshishini ko'rsatgan bo'lsa, Rahmatillo Qo'lg'urov "H. Olimjon asarlarining tili" nomli ilmiy ishida takrori alohida bir bob sifatida o'rganib, tahlil va tadqiq etgan.

1.2. Takrorlarning tasnifi, uslubiy xususiyatlari va badiiy matndagi bo'yoqdorlikni ifodalashdagi roli.

Stilistika tilshunoslikning ajralmas qismi bo'lib, u badiiy nutqning ifodalanishi uslublari , ularning ta'sirchanligi va umuman inson nutqini o'rganadigan fandır. Tilshunoslikda ifoda va uslubiy vosita atamaları mavjud. Gap qurilishidagi o'ziga

xos maxsus qo'llanishlarga, alohida gap shakllarini yuzaga keltiruvchi emotsiya ifodalash uchun xizmat qiluvchi vositalarga sintaktik stilistik vositalar deyiladi. Sintaktik stilistik usul deganda mavjud morfologik, sintaktik va stilistik qoidalardan chekinish tushuniladi, ammo bu chekinishga xato deb qaralmaydi, balki o'z shaxsiy mulohazasining yuzaga kelishi deb tushuniladi.<sup>1</sup>

Takror (Repetition) nutqning og'zaki shakli xususiyatiga asoslangan sintaktik stilistik vosita bo'lib, bu hayajonli holatni ifodalash maqsadlarida qo'llaniladi. Emotsional qisqaligi, mantiqliligi va bayon qilinayotgan fikrning ayrim bo'laklari takrorlanishi bilan ajralib turadi. Takror o'quvchining diqqatini jalb qilish uchun qo'llanadigan stilistik vositadir. Takror stilistik vositasining ishlatilishi tabiiy bo'lishi lozim hamda ma'lum bir so'zlar takrori gapda so'z o'yinini yaratadi.

“For that was it? **Ignorant** of the long and stealthy march of passion, and of the state to which it had reduced Fleur's; **ignorant** of how Soams had watched her; **ignorant** of Fleur's reckless desperation ... - **ignorant** of all this everybody feet aggrieved (Galsworthy).

Og'zaki nutqda ayrim so'zlarning va butun bir so'z birikmalarining takrorlanishini kuzatish mumkin.

“She shrieked loudly: “Where is my baby? But where is my baby? I want to know where is my baby?””<sup>2</sup> (A. Bennett)

Bu misolda takror hrch qanday stilistik vazifani bajarmaydi va so'zlovchining ma'lum bir psixik holatini ifodalayapti xolos.

Takror stilistik vosita sifatida o'quvchining diqqatini jalb etish uchun qo'llaniladi.

“Then she stumbled over some unevenness of the threshold and fell down and she seemed **so** tiny, **so** minute, **so** fragile, **so** miraculously whole

---

<sup>1</sup> “Ingliz va o'zbek tillarida takror stilistik vosita sifatida” M. Saidova. Filologiya va metodika masalalari. Buxoro-2006.

<sup>2</sup> I.R.Galperin. Stylistics. Moscow. Higher School.1977.pages 211-212

and lovely, against the formidable background of the immense ruin.”  
(A.Bennett).

Ingliz tilida takror stilistik vositalar tuzilishiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ajratiladi:

1. Misra yoki gap bo'lagining boshida kelgan takror anafora (**anaphora**) deb ataladi. Masalan, Tomas Gudning “November” she'ri to'laligacha anafora usulida qurilgan.

**No** sun – no moon!

**No** morn – no noon -

**No** dawn – no dusk – no proper time of day -

**No** sky – no earthly view -

**No** distance looking blue -

**No** road – no street – no “t” other side the way””

**No** end to any Row

**No** indications where the Grescents go -

**No** top to any steeple

**No** recognition of familiar people!

**No** warmth – no cheerfulness, no healthful ease,

**No** comfortable feel in any member;

**No** shade, no shine, no butterflies, no bees,

**No** fruits, no flowers, no leaves, no birds,

November!

Keyingi misolda ham anaforaning yorqin misolini ko'rish mumkin.

**For want** of a nail, shoe was lost,

**For want** of shoe, the horse was lost,

**For want** of horse, the rider was lost,

**For want** of a rider, the battle was lost.

(From the book of Nursery Rhymes)

2. Gap oxirida kelgan takrorlar epifora (**epiphora**) deb yuritiladi.

“When I go into a bank I get **rattled**. The clerks **rattle** me. The wickets rattle me, the sight of money **rattles** me, everything **rattles** me.”<sup>1</sup> (S.Leacock).

Keyingi misolda Dikkensning “Bleak House” asaridan epiforaga oid parcha keltiramiz:

“I am exactly the man to be placed in a superior position, **in such a case as that**. I am above the rest of mankind, **in such a case as that**. I can act with philosophy, **in such a case as that**. ”

3. Takrorlanuvchi birliklar o'ziga xos doira hosil qilib, parchaning boshida ham, oxirida ham kelishi mumkin. Bunday takror halqasimon takror (**frame repetition**) yoki (**ring repetition**) deb ataladi. Halqasimon takror fikrni ixcham qiladi, uning tugallaydigan bo'lagi bo'lib keladi.

Our hands have met but not our hearts;

Our hands will never meet again.

Friends, if we have ever been

Friends, we cannot now remain;

I only know I loved you once,

I only know I loved you in vain.

Our hands have met, but not our hearts

Our hands will never meet again. (Thomas Hood).

4. Takrorning yana bir ko'rinishi topilma takror (**linking repetition or anadiplosis, catch repetition, reduplication**) birinchi misraning oxirida kelgan muayyan so'z ikkinchi misraning boshida takrorlanib keladi.

“Freeman and Slave... carried on an uninterrupted now hidden now open **fight**, a **fight** that each time ended.” (D.Cusack)

---

<sup>1</sup>I.R.Galperin. Stylistics. Moscow. Higher School.1977.pages 212-213

“Failure meant poverty, poverty meant **squalor, squalor** let in the final stage to stagnation.”

“To Jan it was as though **a curtain** had been raised in her mind – **a curtain** from which she recoiled in horror. (D.Cusack)”

5. Tizma takrorlar (**chain repetition**) da takrorlanuvchi soʻzlar maʼnosi kuchayib boradi.

“A **smile** would come into Mr.Pickwick’s face: the smile extended into a **laugh**, the **laugh** into a roar and the roar became general. (Dickens)”

“For glances beget **ogles, ogles sighs, sighs wishes, wishes words, and words** a litter.” (Byron).

6. Takrorning oʻzakli takror (**root repetition**) deb nomlangan turi ham mavjud. Uning mohiyati shundaki, unda soʻz aynan takrorlanadi, biroq ularning biridagi qoʻshimcha qism takrorlanmaydi, xolos:

“The child **smiled, the smiled** and **laughed the laughter** of contentment... ” (A.Bennett)

“In the usual order of things he should have lost consciousness at this point, but that mercy was denied him, and he was forced to **endure the unendurable.**” (A.Bennett)

Misollardagi oʻzakli takror topilma takror turi bilan birga kelyapti. Aynan takror oʻzining stilistik vazifasiga koʻra soʻz oʻyiniga yaqin turadi. Bu usulda oʻsha soʻz aynan oʻzi takrorlanmay, faqatgina soʻzning oʻzagi takrorlanadi.

“To live again in the **youth** of the **young.**” (Galsworthy).

“He loves a **dodge** for its own sake; being... - the **dodgest** of all the **dodgers.**” (Dickens).

7. Takrorning navbatdagi turi sinonimik takror (**synonemical repetition**) dir. Sinonimik takror takrorning oʻziga xos bir turi hisoblanadi. Uning oʻziga xosligi shundaki, unda bir fikr turli xil sinonimik vositalar orqali ifodalanadi. Bunday sinonimik takrorlar koʻproq sheʼriyatda, oratorlik nutqida, badiiy va publitistik uslubda ishlatiladi. Juft sinonimlar sinonimik takrorning bir koʻrinishidir. Bunday takrorlarning badiiy-hissiylik vazifasi folklor anʼanalar bilan chambarchas bogʻliq.

Bizga ma'lumki sinonimik takror ildizi bilan milliy qo'shiqchilik san'atiga borib taqaladi.

Masalan: lord and master, clean and neat, act and deed, pure and simple, far and away, the rough-rude, watchful and vigilant.

Ba'zan sinonimik takror obrazli vositalar orqali amalga oshadi, bunday holda bir fikr mantiqiy vositalar orqali ifodalanadi. Bayronning bu ikki gapida aynan bir fikr takrorlanadi. Birinchi gapida ritorik so'roq gapda fikr mantiqan ifodalangan, hech qanday badiiy vositalarsiz, ikkinchi gapda xuddi shu fikrning o'zi metonimiya orqali ifodalangan.

“Setting aside the palpable injustice and the certain inefficiency of the Bill, are there not **capital punishments** sufficient in your **statutes**? Is there not **blood** enough upon your penal **code**, that more must be poured forth to ascend to heaven and testify against you?”

Bu yerda obyektiv sinonimlar qo'llanilishi shart emas. Voqea va hodisalarning obrazli qiyoslash natijasida ham tushunchalar bir-biriga yaqinlashtirilishi mumkin. Bunda so'zlar matniy ma'noga ega bo'ladi. Bizning misolimizda “**capital punishments**” va “**statutes**” so'zlari keyingi misralarda “**penal**”, “**code**” va “**blood**” kabi matniy sinonimlardan iborat.

Bunda bitta tushunchani ifodalash uchun sinonimik, ya'ni ma'noni bir-biriga yaqin bo'lgan vositalar qo'llaniladi:

“The poerty of earth is never **dead**, the poerty of earth is **ceasing** never. ”  
(J.Keats).

Bu yerda obyektiv sinonimlar qo'llanilishi shart emas. Voqea va hodisalarning obrazli qiyoslash natijasida ham tushunchalar bir-biriga yaqinlashtirilishi mumkin.

“A horrible despair, and at the same time a sense of **release, liberation** came over Hermoone; She fondly seized the yelling, wet child, and **hugged it** and **soothed it** and **comforted** it in her enricling beautiful arms.”<sup>1</sup> (A.Bennett).

---

<sup>1</sup>И. В. Арнольд *Стилистика современного английского языка*. Москва. Просвещение. 1970. 93-94 бетлар

Bu misolda ham yuqoridagi misoldagidek matniy sinonimlardan iborat.

Sinonomik takror, ayniqsa, publisistik uslubda-oratorlik nutqida turli xil bo'ladi. Ular hikoya qilishni sekinlashtiradi, shu orqali fikrning rivojlanishini diqqat bilan kuzatishga imkon yaratiladi. Sinonimik takror ko'proq badiiy uslubda ham uchraydi, ayniqsa, uning she'riy ko'rinishida. Agar takror oratorlik nutqida kuchaytirish va ishontirish vazifasini bajarsa, she'riy nutqda detalizatsiya vazifasini bajaradi.

Sinonimik takror ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar takroridir. Sinonimik takror predmeti to'liq va har tomonlama ma'nosini ochib beradi. Masalan Shekspirning LXI sonetida:

Is it they will thuy image should keep open  
My heavy eyelids to the weary night?  
Dost thou desire my slumbers should he broken,  
While shadows like to thee do mock my sight?  
Is it thy spirit that thousand'st from thee  
So far from home into my deeds to pry,  
To find out shames and idle hours in me.  
The scope and ten our of my Jealousy?  
O, no! thy love, though much, is not so great:  
It is my love that keeps mine eye awake  
Mine own true love that doth my rest defeat,  
To play the watchman ever for thy sake:  
For thee watch I whilst thou dost wake elsewhere,  
From me far from off, with others all too near.

Shoir bu she'rida o'zining sevgisi haqida kuylayapti, uni uyqusizlik bilan tasvirlayapti va buning uchun sinonimik takrordan foydalangan:

Keep open thy eyelids, my slumbers, should be broken, keeps mine eye awake, doth my for thee watch I .

Sinonimik takrorning ishlatilishi uyqusizlikni aniq va konkret tasvirlashga yordam beradi. Bu sonetda yuqorida aytib o'tgan takrordan tashqari yana boshqa takror bor. Masalan: spirit va shadow, to pry va to find out. Spirit va shadow aslini olganda sinonim so'z emas, ammo ular bu sonetda shoirning yorining obrazi bo'lib kelib sinonimik ma'no bergan image, shadow, spirit bu sonetda shoirni uyqudan mahrum etgan qizning obrazini yaratgan. Bundan wake, watch kabi o'zak takror ham sonetda uchraydi. Bu yerda "Wake" 2 ta ma'noga ega.

1. My love that keeps my eye awake – ya'ni sevgi shoirni uyqudan mahrum qildi.

2. Thou dost wake elsewhere – uxlamaslik va ahamiyat bermaslik.

Bundan tashqari "watch" ham 2 xil ma'no ifodalaydi. Birinchi misolda uxlamaslik ma'nosi bo'lsa, ikkinchi kuzatish ma'nosiga ega. Bu takrorlar orqali shoirning rashk qilayotgani, uning sevgilisi boshqalar bilan vaqt o'tkazib uning rashkini uyg'atayotgani tasvirlab bergan.

Sinonimlik bitta, yagona ma'noni ifodalashda fikrning asosiy mazmuniga qo'shimchalar kiritadi, kengaytiradi, detollashtiradi. Notiqlar nutqida sinonimik takror nutqning kuchini oshirish va ishontirish, badiiy nutqda detallashtirish vazifasini bajaradi. Sinonimik takror haqida gapirganda **pleonasm (pleonasm)** masalasiga ham to'xtalib o'tmoq kerak.

Pleonazm (pleonasm) da faqatgina o'sha so'z, yoki vosita takrorlanib qolmasdan, balki o'sha mazmun, ma'no ham takrorlanadi. "The Shorter Oxford Dictionary" dab u ortiqcha takror, ortiqcha qusur sifatida ta'riflanadi. E'tirof etilgan fikrga hech qanday qo'shimcha ma'no bermaydi. "Pleonazm – nutqning kamchiligi" deb ta'riflanadi.

"It was a clear starry night and, not a cloud was to be seen." Bu misolda "not a cloud was to be seen"- "hech qanday bulut ko'rinmasdi" gapi birinchi qismdagi gapni to'ldirmaydi va qo'shimcha ma'no bermaydi – "it was a clear starry night"- "musaffo, yulduzli oqshom edi" bu yerda ikkinchi gap takrorlanayapti, xolos.

“He was the only **survivor, no one was saved**”<sup>1</sup>

Bu misolda ham yuqoridagi holat takrorlanadi.

1.- “And the books – they stood on the shelf.”

2.-“The wound- it seemed both sore and sad.”

Bu ikkala misolda esa pleonazm soʻzlar oʻrniga olmoshlar qoʻllash bilan ifodalangan.

The books-they, The would it.

Pleonizmlar badiiy – estetik nuqtai nazardan asoslanmagan sinonimik takrorlardir. Ammo pleonasm hodisasi tilda, ayniqsa, oʻzbek tilida bu maʼnoda deyarli yoʻq hodisadir.

S.Krijijanovski pleonazm haqida shunday degan edi: “Pleonazm uslubning fil kasalligi boʻlib, bundan soʻz kattalashadi ammo kuchsizlanadi.”<sup>2</sup>

Pleonazm badiiy nutqning yozma uslubida notiqlik nutqidan paydo boʻlgan. Pleonazmdan tashqari taftologiya ham sinonimik takrorning bir turi hisoblanadi. Pleonazm ifodalanishning qisqartirilgan shakli boʻlsa, taftologiya uslubning kamchiligidir.

Quyidagi misolda biz takrorning bir necha xil turini koʻrishimiz mumkin:

**So long** as men can breathe or eyes can see

**So long lives** this and this gives **life** to thee.

Birinchi navbatda alliterasiya yaʼni oʻzakli **long gives ... life**, bundan tashqari soʻzlar yoki frazalar takrori **so long ... so long**, bu takrorning anafora turiga mansub., morfemalar takrori **live...life**, semantik takror **men can breathe ... eyes can see, breathe** va **live** sinonimik takror boʻlib kelgan.

Takrorning turli formalari orasida badiiy nutqda ishlatiladigan va deyarli boshqa nutqda ishlatilmaydigan takrorlar ham uchraydi, ular soʻzning koʻp maʼnoligiga asoslangan boʻladi:

---

<sup>1</sup> I.R.Galperin. Stylistics. Moscow. Higher School. 1977. pages 213-214.

<sup>2</sup> Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. М., Лит.на иностр.языках, 1956.стр.268.

“Miss Witherfield **retired**, deeply impressed with the magistrate’s learning and research; Mr Nupkins retired to lunch; Mr Jinks **retired** within himself – that being the only retirement he had .... and Mr Grumner **retired** to wipe out .... the insult which had been fastened upon himself. ”

Yuqoridagi misolda “to retire” fe’li uch xil ma’noda ishlatilgan. Bunday turdagi takrorning asosiy vazifasi so’z o’yini. Bir so’zning turli xil ma’nodagi takrori asosiy takrorlanayotgan so’zning ma’nosini aniq detallashtirishga yordam beradi.

Takror yoki repriza stilistik figura bo’lib, tovushlar, so’zlar, morfemalar, sinonimlarning takroridan iborat. Takror nutqning boshqa formalari singari hissiy bo’yoqdorlikni kuchaytirishda xizmat qiladi. Takrorlardan qo’shimcha ma’lumot

berish uchun foydalaniladi, bundan tashqari gaplar orasida bog'lovchilik vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi. Takror she'riyatda keng qo'llaniladi. Ba'zi olimlar takronni she'riyatning ajralmas qismi deb baholaydilar. Takror metrik va evfonik elementlardan iborat. Metrik elementlarga she'r, anakruru, epikruru kirsas, evfonik elementlar tarkibiga esa qofiya, assonans, dissonans, refren kiritilgan.<sup>1</sup>

Takrorning vazifasi turli xil. Takror testning mavzusini, uning g'oyasini ochib beradi.

Masalan:

**Beauty is truth, truth beauty**-that is all.

Ye know on earth, and all ye need to know.

Bu parchada go'zallik va haqiqat bir butunlik sifatida ko'rsatilgan. Lingvistik jihatdan analiz qilsak ega va kesim "to be" fe'li yordamida bog'langan.

Tekst ichida takror muhim bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.. Asosan takror kitobxonning diqqat e'tiborini kalit so'zga qaratishga xizmat qiladi. Takrorning eng birinchi vazifasi kuchaytirish. Kuchaytirish vazifasidagi takror odatda qurilishi jihatidan sodda, takrorlanayotgan so'zlar bir-biriga yaqin joylashgan bo'ladi. Takrorning boshqa vazifalari kuchaytirish kabi hissiy bo'yoqdorligi kuchli emas. Takrorning boshqa vazifalari kontekstdan ma'lum bo'ladi. Dikkinsning "Our Mutual Friend" romanidagi parchada takror ketma-ketlik vazifasini bajargan. Bu vazifani aniqlab berayotgan "then" siz ham buni aniqlash mumkin.

"Sloppy ... **laughed** loud and long. At this time the two innocents, with their brains at that apparent danger, **laughed**, and Mrs. Hidgen **laughed** and the orphan **laughed** then the visitors **laughed**."

Laughed so'zining takrori sahna tasvirining obrazli jonlantirish maqsadida xizmat qilgan.

Ba'zan takror modallik vazifasini ham bajaradi:

---

<sup>1</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного англ.языка. Л., Просвещение, 1973. стр.216.

What has my life been? **Fag and grind . Turn the wheet, turn the wheet.**

Takror bu misolda ish–harakatning bir xilligi ko’rsatayapti. Bunday vazifadagi takror asosan so’zlar va so’z birikmalari takroridan tashkil topgan ritm orqali amalga oshiriladi. Takrorning modallik vazifasini turli xil ko’rinishdagi takrorlarda ham ko’rishimiz mumkin. Bunda Tomas Gudning “The Song of the shirt” she’ri misolida ko’rish mumkin:

**Work – Work – Work :**

**Till** the brain begins to swim!

**Work – Work – Work**

**Till** the eyes are heavy and dim!

**Seam,** and **gusset,** and **band,**

Band and gusset, and, and seam-

**Till** over the buttons I fall sleep,

And sew them on in a dream!

Zerikarli bir xillik va ish- harakatning monotonligi turli xil vositalar orqali berilgan. Monotonlik, ish – harakatning bir xilligi **work, seam, gusset, band** so’zlari orqali berilgan.

Takrorning ko’p ishlatiladigan yana bir vazifasi bu – ko’tarilish. Bu vazifa kuchaytirish vazifasiga yaqin turadi, bular o’rtasidagi farq shundaki, ko’tarilishda hissiyotning kuchayishi asta – sekin ko’tarila boshlaydi. Bunday takror intonatsion ko’tarilishni talab qiladi. Quyida berilgan misolda Quilp ismining takrori orqali aytilgan so’zning keskinligi asta-sekin ko’tarila boshlangan:

... I answer to all these questions – **Quilp – Quilp**, who deludes me into his interval den, and takes a delight in loking on and chuckling while I scorch, and burn, and bruise, and maim myself-**Quilp**, who never once, no, never once, in all our communications together, has treated me, otherwise than as a dog-**Quilp**, whom I have always hated with my whole heart, but never so much as lately.

Anafora ko’proq bog’lovchi vazifasida qo’llaniladi. Mana bu misolda yozuvchi fikrini qahramonning kuzatish obyektni bog’lash, birlashtirish uchun

“now” takrori orqali amalga oshirilgan.

“There stood Dick, gazing now at the green gown, now at the brown head-dress, now at the face, and now at the rapid pen in a state of stupid perplexity ” Ba’zi hollarda takror keskinlik muloyimlashtirish vazifasini ham bajaradi. Masalan, Bayronning “Don Juan” poemasidagi parchada so’zlar takrori va then muloyimlashtirish maqsadida xizmat qilgan.

For then their eloquence grows quite profuse:

And when at length they’re out of breath, they sign,

And cast their languid eyes down, and let loose.

A tear or two, and then we ware it up:

And then – and then – and then – sit down and sup.

Takrorning ritmik vazifasi ikkinchi darajali vazifa bo’lib, u yuqorida aytib o’tgan vazifalar bilan ko’p hollarda keladi. Quyidagi misolda and upon his takrori aniq ritm yaratgan.

“The glow of the fire was upon the landlord’s ” hold head, and upon his twinkling eye, and upon his watering mouth, and upon his pimpled face, and upon his round fat figure.”

Shunday qilib, takrorning oddiy vazifalaridan biri – ta’sir ko’rsatishdir. Ba’zan ish - harakatning izchilligini, bir xildaligini ifodalash, bu vazifa marom yordamida amalga oshadi. Takrorning yana bir vazifasi gapning ma’nosini kuchaytirishdir. Takrorning eng asosiy vazifasi hissiy bo’yoqdorlikning kuchaytirish.

So’zlarning takrorlanishi gapda katta kuch sanaladi. Anafora ko’pincha bog’lovchilik vazifasini ham o’taydi. Takror ish-harakatning takroriyiligini va davomiyligini ifoda etish uchun ishlatiladi. Takrorlanuvchi birliklarning ba’zan gapdagi takrorlanmaydigan birliklardan ajralib turishi fon hisoblanadi. Ba’zi bir birikmalarning o’zgarimas holda tez-tez takrorlanaverishidan frazeologik birlik vujudga keladi. <sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> L.T.Boboxonova. Ingliz tili stilistikasi. Toshkent. “O’qituvchi” – 1995.72-74-betlar.

Soʻzlar takrori sheʼriyatda ayniqsa fikriy siqqlik omilidir. Biroq oʻrni bilan takrorlangan soʻzlar koʻpincha badiiy taʼsirchanlikning, gʻoyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti boʻla oladi. Sharq sheʼriyatida shuning uchun ham soʻzlar takroriga oid bir qancha sanʼatlar vujudga kelgan. Bularning eng muhimlari ishtiyoq, tasdir, tasbe, mukarrar (takrir), aks, tarde aks, rad sanʼatlaridir.

Bob 2. Teodor Drayzerning ayol siymosini yaratishda ekspressivlikni ifodalash maqsadida takrorlardan foydalanishdagi mahorati (“Amerika fojiasi” romani misolida)

2.1. Teodor Drayzerning hayoti va ijodiy faoliyati.

Drayzer ijodi-XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning cho'qqisidir. Drayzer A.Q.SH hayotidagi fojiaiviylikni ko'rsata olgan yirik san'atkor bo'lib, uning ijodi, ayniqsa, Oktabr revalyutsiyasining jahonshumul g'alabasi ta'siri ostida ravnaq topdi, u Amerika qit'asida sotsialistik realizm adabiyotiga asos solgan yirik yozuvchi va jamoat arbobi sifatida taniladi.<sup>1</sup>

Jahon adabiyotining taniqli namoyondasi, serqirra ijodkor, journalist, naturalizm maktabining yorqin vakili va Amerika adabiyotining so'nmas yulduzi Teodor Drayzer zamonasining kuchli yozuvchilaridan biri bo'lgan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida qalam tebratgan bu yozuvchi o'sha davr muhitini yaxshi ochib bergan, obrazlarini yaratishda jamiyatning ishchilar sinfiga ko'proq e'tibor qaratgan. Uning eng asosiy tayanchi o'zining boshidan kechirgan murakkab va qiyinchiliklarga to'la bo'lgan hayati va ijodidir. Teodor Drayzer-Teodor Albert German Amerika yozuvchisi va jamoat arbobi "Chikago deyli nyuvs" (Chicago daily news) gazetasi muhariri (1892).<sup>2</sup>

Teodor Drayzer Indiana shtatining Terre-Xot qishlog'ida serfarzand, shuning barobarida qashshoq oilada dunyoga keladi. U Sara va Jon Drayzerning o'n ikkinchi bolasi edi. Teodorning to'g'ich akasi Paul Drayzer(1859-1906) zamonasining mashhur kompozitorlaridan biri bo'lgan. 1844-yil o'z ona yurtini tark etgan oila boshlig'i Jon Drayzer Germaniyaning Mayyen shahri fuqarosi bo'lgan. Keyinchalik esa Angliya o'rmonlarida qisqa vaqt davomida daraxt kesuvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi. So'ngra O'rta G'arbga ya'ni yurtdoshlari makon qurgan zaminga ko'chib o'tadi. Biroz muddatdan so'ng Ogayyo shtatiga boradi. U yerda o'z baxtini uchratadi, ammo sevgilisi Saraga yetishish uchun ko'pgina to'siqlarni yengib o'tish kerak edi. Saraning oilasi o'ta dindor oila edi, katolik mazhabining har bir qonun-qoidasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashilardi. Jon esa provaslav mazhabida edi, shuning uchun Mennotilar oilasi bu yigitni qabul qila olmasdilar. Ammo har yerda muhabbat g'olib deganlaridek, bu juftlik bir-biridan ayrilmadi.

---

<sup>1</sup>Qayumov L. "Chet el adabiyoti tarixi" Toshkent "O'qituvchi" 1987-yil 304-bet.

<sup>2</sup>O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat milliy nashriyoti 2002-yil.369-370-betlar.

Aksincha ular uchun yagona yo'l bu diyorni birgalikda tark etish edi va bu ishni ular uddalay oldilar. 1851-yilda bu juftlik o'rtasida nikoh o'qildi, turmush o'rtog'i o'zidan o'n ikki yosh katta o'n yeti yashar kelinchakning quvonchi cheksiz edi. Teodorning bolalik yillari haqida yozgan estaliklarida onasining bu baxtli lahzalarni tez-tez eslashini alohida ta'kidlab o'tgan. Sara va Jon avval Indiana shtatining Fortvoyn shahriga so'ng Terra-Xotga ko'chib kelishadi. Bu shaharda otasi yof'och biznesi bilan shug'ullanadi, tez orada uning bu biznesi gullab yashnaydi va Sullivendan o'ziga yer sotib oladi. Ammo 1869-yil omad bu oiladan yuz o'giradi, taqdir o'z hukmini o'tkazadi, ularning yeriga o't ketadi va shundan so'ng bu oila o'zini tiklay olmaydi. Jon bir so'm pulsiz va ishsiz bo'lib qoladi. 1870-yil boshida mamlakatda hukm surayotgan iqtisodiy tanglik va ishsizlik bu oila ahvolini yanada chigallashtirdi va bu hol uzoq vaqtga cho'ziladi. Baxtiqaro bolakay Teodorning bolalik yillari ayni shu paytga to'g'ri kelib qolgandi. Drayzerning bolaligi ochlikda va muhtojlikda o'tdi. Uning ilk xotiralari o'sha davrning o'g'ir damlari, oilaning iqtisodiy taqchilligi, otasining ishsizlik paytlari bilan qamrab olingandi. Teodorning ilk o'smirlik yillari Indiana shtatining beshta shahrida (Chikagoda ham bir necha oy istiqomat qilishgan) kechgan. Albatta hayotidagi bu o'zgarishlar Teodorning ruhiyatiga, ilm olishiga, ijodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Drayzer o'qish u yoqda tursin, kun ko'rishga ham qiynalib, pul topish uchun ertadan kechgacha qiynalib tinimsiz mehnat qilar edi.<sup>1</sup>

O'sha paytda Amerika adabiyoti katoliklar ta'siri ostida edi va faqat ko'proq e'tibor nemis adabiyotiga qaratilgan edi va bu Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi. Teodor o'zining adabiy faoliyati davomida nemis-amerika klassik adabiyotining haqiqiy hayotiy rasmini chizib bera olgan va bu o'z asarlarida aksini topdi. O'sha paytdagi og'ir hayot, nochorlik, iqtisodiy yetishmovchilik, moddiy ahvolning tangligi, uning adabiyotga bo'lgan mehrini, o'qish otashini zarracha pasaytirmadi. Oilani tebratish uchun bechora ona odamlarning kirini yuvar va Teodor unga tayyorgina dastyor edi, ona-bola kunduzlari qora mehnat qilishar, holdan toygan Teodor esa kechqurunlari kitob varaqlashga ham vaqt ajratar edi. Uning bolalk

---

<sup>1</sup>Засурский Я. "Теодор Драйзер". Москва, 1977. 30-31-бетлар.

xotiralari haqida yozgan estaliklarida ularning bu ahvolga tushishlariga, qiyinchilik bilan umrguzaronlik qilganliklariga ko'pincha otasini aybdor deb hisoblardi. Chunki otasi o'sha paytda ruhoniy bo'lib olishga ulgurgan va u bolalariga, yaqinlariga haqiqiy baxt bu foni dunyoni tark etgandan so'ng, Olloh huzurida bo'lishini uqtirishga harakat qilar edi. Uning o'zi bu ta'limotga qattiq ishonar va boshqalarning ham shunday bo'lishlariga da'vat etardi. U oila tebratishga harakat qilmas, oilasini qiyin moddiy ahvoldan olib chiqishga urinmasligi Teodorga og'ir botar edi va uning qalbini yaralardi. Teodor ham boshqa bolalar singari baxtli, quvonchli hayot tarzini o'tashni xohlar, bu dunyoga alamzadalik, xo'rlanish bilan emas, balki beg'ubor, yorqin ko'zlar bilan boqishni istar edi. Balki shuning uchun hamdir uning ko'pgina asarlarida bolalikning o'g'ir asoratlarini uchratish mumkindir. Uning bu alamzadaligi, hayotga bo'lgan nafrati, qayg'uga limmo-lim to'lgan bolaligi uning eng yaxshi asarlaridan biri "Jenni Gerxardt"da o'z aksini topadi. Bu asarida u o'z oilasini model qilib oladi. Misol uchun: Gerxardtlar oilasining Indiana shtatida yashashi, otasining kelgindi bo'lishi, ota va bola tushunmovchiligi, otasining bolalar oldida o'z avtoritetini yo'qotishi, otasining dinga mukkasidan ketishi va hokazolar. Drayzer bu modelini yana boshqa asarlarida kengaytirdi, masalan, "Amerika fojiasi" romanida ham xuddi shunday befarq ota (Eysa) obrazini ko'rishimiz mumkin. Endi u nafaqat o'z oilasining balki, boshqa bir oddiy Amerika oilasining portretini chizdi.<sup>1</sup>

Onasining vafotidan so'ng Drayzer Chikagoga borib dastavval restoranda idish-tovoq yuvuvchi, yer o'lchovchi, usta tekshiruvchi, tovar stantsiyasida nazoratchi bo'lib ishlaydi, kir yuvish shaxobchasida mexaniklik qiladi. Qo'yingki uning qilmagan ishi, ish qidirib kirmagan ko'chasi qolmagan edi. Maktabni bitirib, 1883-yil Indiana Universitetiga kirib, bir yil o'qib, uni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Chunki iqtisodiy ahvoli o'qishni davom ettirishga imkon bermaydi. Shunday bo'lsada, hamma vaqt o'qishni davom ettirishi lozimligini qalban his etib yuradi. Bunday moddiy qiyinchiliklar uning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turli tuman odamlar bilan uchrashadi, yaxshi-yomonni ko'radi. Hayotning

---

<sup>1</sup> Theodor Dreiser "A book about myself".New-York,1922.960-961-betlar.

murakkab qirralariga duch keladi. Ular haqida yozishni orzu qiladi. Bu orzu uni Chikago, Sent-Luis, Klevelend, Pitsburg, Nyu-York gazetalari bilan aloqa bog'lashga yetaklaydi. 1892-yil iyun oyida yigirma bir bahorni qarshilashiga ikki oy qolganida Chikago gazetasida durustgina maqolasi "Negr Jeff" nashr etiladi. Uch yil davomida bu gazetada faoliyat yuritganidan so'ng, oylik maoshi yuqoriroq bo'lgan boshqa ishlarga o'tib ketadi. Ammo aslini olganda u bu yerda tajriba maktabini o'taydi, ya'ni uning bu ijodiy faoliyati katta ijod ko'chasiga qadam qo'yishiga turtki bo'ladi.

Drayzer journalist sifatida faoliyat yuritgan paytda hech qachon mashhurlik cho'qqisiga intilmagan. U maqola va xabarlar yozayotganida, ularga ko'p ham badiiy jilo beravermasdi. Ya'ni u bo'rttirish, yanada serjilovlantirish san'atidan olisda edi. U shunchaki jamiyat hayotida sodir bo'layotgan, odamlar e'tibor berishi kerak bo'lgan, hayotning ko'z ilg'ar-ilm'amas nuqtalarini omma e'tiboriga havola etardi. Balki real hayot bilan birgalikda qadam tashlagani uchun ham odamlar orasida tez tilga tushadi. O'zi xohlamagan bo'lsada, uning nomi gazetalarda tilga olinib boshlanadi. Sent-Luyis gazetasida faoliyat yuritishi davomida yangi qirralari ochilib boradi. Endi Drayzer dramaturg, kritik, serqirra ijodkor va izlanuvchan muxbir sifatida tilga olinib boshlanadi. Uning tanqidiy maqolalari xalq orasida tez ommalashadi va u kritik muxbir sifatida samarali ijod qiladi. 1890-yil tajribali muxbir keyingi asari uchun zamin yaratadi. O'tgan yillardagi faoliyati davomida maxsus kichik-kichik hikoyachalar yoza boshlaydi, ularga maxsus qahramonlar tanlaydi, dialog, monolog bilan boyitishga harakat qiladi, obrazlar yaratishda badiiy bo'yoqlardan foydalanadi, ularni jonlantirishga, yanada kitobxonga yaqinlashtirish uchun butun mahoratini ishga soladi.<sup>1</sup>

Bilimga tashna Drayzer o'sha vaqtda keng tarqalgan Gerbert Spenser falsafasini qiziqib o'rganadi. Uning qarashlari Drayzerni sotsial voqealarni biologik qonunlar asosida tasvirlashga, turmushni noto'g'ri talqin etishga olib boradi. Spenser og'ir ahvolga hukumatni ham, jamiyatni ham ayblab bo'lmaydi, bunga hayotning biologik qonunlari aybdor, deydi. U yugurishda ildam, kurashda

---

<sup>1</sup> <http://www.wikipedia.com>, the free encyclopedia.

kuchli yengadi, degan qarashni targ'ib qilar edi. Drayzer muxbir-reportyor bo'lib Chikago, Nyu-York kabi katta shaharlarda ishlay boshlaydi. Xalqning og'ir ahvoli bilan tanishadi. Lekin Spenser qarashlarining asossizligini tushunib yetmaydi. Dastlabki hikoyalaridagi umidsizlik kayfiyati turmushni to'g'ri anglamaslik oqibatida kelib chiqadi. Oliy ma'lumotli bo'lmasada Drayzer gazetalarda durustgina maqola va xabarlarni berib boradi.<sup>1</sup>

Keyinchalik T.Drayzer L.N.Tolstoy ijodi bilan tanishadi. Tolstoy asarlari uni yozuvchilik ko'chasiga olib kiradi. Uning asarlarini muttassil o'qiydi va ular yosh Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning ijodi shunisi bilan qiziq-ki, u hech qachon o'zi yaratgan obrazlardan ko'ngli to'lmagan, doim qandaydir kamchiligi borday tuyulavergan. Balki shuning uchun hamdir uning bu tantiqligi, ijodidan ko'ngli to'lmashligi yozuvchi qalamini yanada o'tkirlashtiradi. Bekorga uni zamonasining "yozuv mashinkasi" deb atashmagan. Tabiiyki, bu narsa uni yanada ruhlantiradi, u she'riyat sohasida ham qalam tebratadi. Biroz muddat opera teatrida ham ishlaydi. Operalar uchun maxsus kichik-kichik she'riy parchalar yozib tiradi, xususan komediya yo'nalishidagi "Jeremi operasi" uchun yozgan she'riy parchalaridan namunalar saqlab qolingan.

Tajriba maktabini yaxshi o'tagan Drayzer nazmdan nasrga tomon ilgarilab boradi. U o'z ustida ishlashni kanda qilmaydi, ilmini, dunyoqarashini yanada boyitishga harakat qiladi. Ilm doirasini falsafa, tarix, adabiyot, ma'naviyat sohasi bilan kengaytiradi. Garchi Drayzer oily ma'lumotli bo'lmasada, Benjamin Franklin siyosatini o'zlashtirishga harakat qiladi, uning asarlarini qunt bilan o'qiydi, jahon adabiyoti yozuvchilarining asarlariga katta qiziqish bildiradi. Jahon adabiyotining kuchli qalamkashlari Edgar Allen Po, Gerbert Spenser, Jon Steynbek, Jek London, Edit Varton, Stefen Kreyn, Balzak, Emil Zola ishlarini katta qiziqish va qunt bilan o'qiydi, ular ijod qilayotgan oqimini tahlil qiladi va ulardan namuna sifatida o'z yo'nalishini, o'z uslubini shakllantiradi. Xullas, Drayzerning ijod bulog'I hech qachon qaynashdan to'xtamaydi.

---

<sup>1</sup> Boynazarov F. "Jahon adabiyoti" Toshkent, 2006-yil. 124-bet.

“World” gazetasida qisqa faoliyat yuritganidan so’ng Drayzer “Haviland and Co-a music-Production” kompaniyasigaishga kiradi. Bu kompaniyada u akasi Paul Drayzer bilan birgalikda faoliyat yuritadi. Teodor qo’shiq matnini yozar, akasi esa unga musiqa bastalardi. Aka-uka Drayzerlar birgalikda Amerika tarixida o’chmas iz qoldirganlar. Ular Indiana shtati madhiyasi “On the banks of the Wabash” (“Vabash qirg’oqlarida”) ni yaratganlar. Bu madhiya hali ham Indiana shtatida yaxshi xotirlanadi, taassufki uning mualliflari ham.

T. Drayzer adbiy ish jarayonida jurnalizm sohasida anchagina tajribaga ega bo’lib oladi. Endi u muharrirlik qila boshlaydi. “Every month” va “The Woman’s Magazine of Literature and popular music” jurnallariga bir qancha muddat muharrirlik vazifasini bajaradi. Maqola, ocherk, hikoya, povestlar bilan gazeta nashrlarini rangbarangligini oshiradi. Ana shu ijod namunalarida Drayzer ilk bor o’z shaxsiy fikrini, nuqtai-nazarini bildiradi, jamiyat muammolarini keng ommaga havola etadi. Tarix, falsafa, mantiq, san’at, iqtisod va siyosat sohalariga ham e’tiborini qaratadi. Drayzerning shu tariqa samarali ijod qilishiga jahon adabiyotini qunt bilan o’rganganligi, xususan Romantisizm, Realizm yo’nalishidagi ijod namunalarini o’zlashtirishi va Naturalizm oqimining namoyondalari Charlez Darvin, Gerbert Spenser, Tomas Xuxli va shuningdek kuchli qalam egalari Tomas Gardi va Onore De Balzak asarlarining chuqur ta’sir ko’rsatishi keng imkoniyat eshiklarini ochib beradi.<sup>1</sup>

1897-yilda Drayzer “Every month” jurnalining muharrirligi vazifasini tark etishga majbur bo’ladi. Endi ijod pillapoyalarida o’sib borayotgan yosh niholni sindirishga harakat qilgan ba’zi bir g’ayriniyat kimsalar Drayzer muvaffaqiyatini ko’rolmaydilar va uni erkin ijod qilishiga xalaqit berdilar. Endi u yozib bergan maqolalariga kamroq haq to’lanadigan, har bir yaratgan ishidan kamchilik axtaradigan bo’lishdi. Hatto uning bir ocherki o’n ikki marotaba qaytarilgan, xullas uning maqolalari endi gazeta va jurnallarning har yangi sonida emas, balki oyida bir ikki bor gazeta yuzini ko’radigan bo’ldi. Shundan so’ng Drayzer bu jurnalni tark etdi. Va uch yil davomida mustaqil erkin yozuvchi sifatida faoliyat ko’rsatdi.

---

<sup>1</sup> <http://xroads.Virginia.edu/~Hyper/Dreiser/>.

Ora-orada “Munsley’s Metro politan” va “Harper’s Monthly” jurnallariga o’z hikoya va ocherklarini taqdim etib boradi. Uch yillik tanaffusdan so’ng Drayzer yana jurnalistika sohasiga qaytadi. Endi u tajribali journalist sifatida Amerikaning taniqli kishilari, mashhur yozuvchilar va davlat odamlaridan intervyu olardi. U Andri Karnegi, Tomas Edison, Marshal Fild, Villiam din Hovels va Filip Armordan intervyu olgan. U bu sohaga yanada chuqurroq bog’lanib borardi. Endi Drayzer boshqa jurnallar aloqa o’rnatadi va keng qamrovli mavzularda ijodiy izlanishlar olib boradi. Ijodkorimiz “Amerika mevachilik sanoati”, “Chikago go’sht mahsulotlari”, “Zamonaviy san’at”, “Shisha stakanlar yasash sanoati” va “Alfred Shtigilz portreti” mavzularida ilmiy maqolalar e’lon qiladi. Bu ishlaridan Drayzerning naqadar serqirra ijodkor, izlanuvchan shaxs ekanligini e’tirof etishdan boshqa ilojimiz yo’q.<sup>1</sup>

Yozuvchi jurnalistika sohasi bilan birga nazm va nasrda ham o’zini sinashda davom etaverdi. Uning ilk hikoyalari safiga “Negr Jeff”, “Butcher Rogaum’s Door” (“Qassob Rogam eshigi”) va “Shining Slave Makers” ni kiritishimiz mumkin. Bu hikoyalar bugungi kungacha kitobxonlar orasida yaxshi olqishlanadi, ular hali ham ta’sir kuchiga kitobxonlar nazdida. Bu hikoyalar Amerika hayotida XIX asrning so’nggi o’n yilligida yuz bergan ijtimoiy o’zgarishlarni o’zida aks ettiradi.

Drayzer ijodining birinchi davrida (1900-1917) yirik realistlik asarlar yozishi bilan bir qatorda reaksion Spenser falsafasiga berilishi unda ziddiyatli fikrlar tug’ilishiga va uning yanglish xulosalar chiqarishga olib boradi. Drayzer ijodining ikkinchi davri (1917-1945) Oktabr revolyutsiyasidan keyingi yillarga to’g’ri keladi. Sotsialistik g’oyalar ta’siri ostida u o’zidagi burjua ideologiyasi ta’sirini bartaraf etadi, yirik tanqidiy realist yozuvchi bo’lib yetishadi.

Daryzerning yana shaxsiy hayotiga qaytadigan bo’lsak, 1898-yil u uchun unutilmas yil bo’ldi. U bo’lajak turmush o’rtog’ini uchratdi. Uning jufti haloli Sara Osborn Vayt Missuri shtatida maktab o’qituvchisi bo’lib ishlardi. Avvaliga ular

---

<sup>1</sup> Николаев А. “Драйзер-великий американский писатель”. Москва, 1999. 59-бет.

shunchaki suhbatdosh do'st edilar. Drayzer Sarani mashhur bir yozuvchining hayoti va ijodiga bag'ishlangan kechada uchratdi. Sara ham xuddi Drayzer singari adabiyot oshuftasi edi, ular san'at va adabiyot shaydosi edilar. Kechada bu juftlik orasida kechgan iliq suhbat ularni bir umrga bog'ladi. Qizning nutqidagi samimiylilik, adabiyotga mehri va ko'zlaridagi ilmga chanqoqlik otashi, o'zini tutishi, odob bilan so'zlashi Drayzerni batamom o'ziga maftun etdi. Dastlabki uchrashuvlarda ular faqat ijtimoiy sohalarda, ayniqsa adabiyot sohasida, qizning qaysi asarni o'qigani-yu va asarlar tahlili haqida suhbat qurar edilar. Drayzer qizga ko'p maktub yuborar edi va maktublarning birida Drayzer Saraga bo'lgan munosabatini yashirib o'tirmadi. Va uning qo'lini so'radi. Sara ham yigitga befarq emas edi va ko'p o'ylab o'tirmay, qiz yigit taklifini qabul qildi. Va bu uchrashuvlarning intihosi nikoh bilan yakunlandi. Ming afsuslar bo'lsinki, bu nikoh ko'pga cho'zilmadi va ular 1909-yilda ajrashdilar. Ammo Drayzer hech qachon ajralishni xohlamagan. Sara esa turmush o'rtog'ining xohish-istaklariga qaramay uni tashlab ketgan. Bu Drayzer qalbida o'ta og'ir jarohat bo'lib qoldi.

Drayzer 1893-yilda Sent-Luyis gazetasida faoliyat ko'rsatayotgan paytda katta bir ishga qo'l urdi. Ayolining qo'llab-quvvatlashi va do'sti Artur Genri (u yozuvchi shuningdek "Toledo Blade" gazetasining muharriri) yordami bilan birinchi romani "Sister Carrie"("Baxtiqaro Kerri") ni yozishga kirishdi. Bu asarning yozilishiga tuktki bo'lgan asosiy sabab Drayzerning opasi bilan bog'liq bo'lgan hodisa hisoblanadi. Drayzerning opasi Emma Chikagolik tadbirkor Xopkins bilan birga qochib ketadi. Xopkins oilali bo'lishiga qaramay o'z oilasini bir tiyinsiz qoldirib sevgilisi bilan qochib ketadi. Drayzer bu qissani o'ziga qolip qilib olib asar yozishga kirishadi. Bu asar Amerika aholisini larzaga soldi. Drayzer bu asarida tabiat, borliqning falsafiy qarashlari bilan shahar hayotining qayg'uga to'la jabhalarini uyg'unlashtiradi. Ilk ijod namunasi birinchi yirik asari "Baxtiqaro Kerri" (1900) romani mahorat bilan yozilib, yozuvchi nomini Amerikaga mashhur qilib yubordi. Garchi roman o'n uch yil bosishga ruxsat berilmasada, uning

qo'lyozmalarini ko'pchilik o'qib chiqadi. Bu davr ichida roman bosmadan chiqadi.<sup>1</sup>

Asarning asosiy g'oyasi Amerikada barcha uchun barobar imkoniyatlar mavjud degan illyuziyani fosh etishda ko'rinadi. Kerrining orzu-istaklari kapitalistik illatlar avj olgan shaharda amalga oshishi qiyin edi. Haftalab u sarson-sargardonlikda ish axtaradi. "Baxtiqaro Kerri" romanining himmati jamiyatdagi xalq ommasining og'ir turmushi, ayniqsa, korxonalarda ishlovchi ayollarning qattiq eksplutatsiya qilinishlari, mushkul ahvolga tushib qolgan Kerrining yuztuban ketishi evaziga ko'tarilishi, burjua Gerstvud oilasidagi munofiqlik, boy kvartal Brodveygdagi dabdabali hayot, tramvay ishchilarning ish tashlashlari tasviri ishsizlik natijasida ko'chaga chiqarib tashlangan son-sanoqsiz kambag'allarning och tentirab yurishlarining haqqoniy aks ettirishshida ochiq ko'rinadi.

Yozuvchining ya'ni Teodor Drayzerning birinchi romani bosishga ruxsat etilmasligi, uning ruhiyatiga qattiq ta'sir etsa ham, umidini biroz so'ndirsa-da, ammo u hayotning beshavqat qonunlari oldida taslim bo'lmaydi, umidsizlikka berilmaydi, o'zini qo'lga olib katta kuch va shijoat bilan yangi umid ila ikkinchi romani ya'ni "Jenni Gerxard" (1911) ustida ishlaydi. Bu ikki asarda ham oddiy qizlar taqdiridagi ijtimoiy axloqsiz masalalar tasvirlangan. Ushbu romonida ham kambag'al oiladan chiqqan qizning burjua jamayatiidagi fojiasi ko'rsatilgan. Asarning g'oyaviy yo'nalishi oddiy qizning xulqiy pokizaligi, uning buzilgan burjua axloqiga qarshi qo'yilishida namoyon bo'ladi. Romanning asosiy syujeti, ishchi qizi Jennining fojiasi, u bilan millionerning o'g'li Lester Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida ochiq ko'rinadi. Kambag'al Jenni boy yigit Keyn bilan turmush qurolmaydi. O'sha jamiyat urf-odatlarini, sotsial adolatsizliklar bu yoshlarning tabiiy sevgilariga to'sqinlik qiladi. Drayzer oddiy qizning odobliligi, vafodorligi qalbining musaffoligini ko'rsatish orqali xalq kuch-qudratiga ishonchini ifodalaydi. Jenni o'zining eng yaqin kishilari – ota-onasi, qizi Vesta, nihoyat

---

<sup>1</sup> Qayumov L. "Chet el adabiyoti tarixi". Toshkent, "O'qituvchi" 1987-yil, 1-qism 305-bet.

sevgani Lesterdan ajraladi. Lekin bunday og'ir yo'qotishlar uni umidsizlikka tushirmaydi. U yetim bolalarni asrab oladi va bundan so'nggi hayotini ular tarbiyasiga bag'ishlaydi. Sinfy ziddiyatlar imtiyozli tabaqalarning yaramas xulq-atvori, kambag'allarning og'ir turmushi tasviri bosh qahramon Jenni Gerxard hayoti bilan bog'liq ravishda burjua jamiyatidagi aqchaning halokatli ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan.

Teodor Drayzerning dushmanlari bu qashshoq, o'qimagan yigitning mashhur bo'lib ketishidan xavotirga tushishadi. Bu davr ichida Drayzer hayotida notinchliklar boshlanadi. 1912-yilda Drayzer ilk bor Yevropaga safar uyushtiradi. Uni Britaniyalik nashriyotchi Grand Richards mehmon sifatida o'z mamlakatiga taklif etadi. Angliyaga birinchi marotaba tashrif buyurgan Drayzer bu yerning tabiatidan, ob-havosidan bahramand bo'ladi. Ijodkorga bu zamin yaxshi taassurot qoldiradi. Qisqa vaqt ichida bu diyorga sayohat uyushtirgan yozuvchi bu mamlakat safari haqida asar yozadi: "A Traveller at forty"(1913) ("40 yoshli sayohatchi "). Shundan so'ng Drayzer Grinvich qishlog'iga yo'l oladi va bir muddat u yerda yashaydi. 1910-yilda yozuvchi liberal oqimining vakillari va radikal guruhlar bilan yaqin aloqa o'rnatadi. U siyosiy radikalchilar xususan Maks Istman, Daniel De Leon va Floyd Dell bilan yaqindan tanishib ular bilan birlashadi. Bu oqim yo'l boshchisi Margaret Sangerni qo'llab-quvvatlaydi. Anarxist Emma Goldman bilan yaqindan do'st tutinadi va u bilan tez-tez fikr almashib turadi. Drayzer o'zining siyosiy qarashlarini, fikrlarini, estetik maqsadlarini "The Masses" jurnali orqali namoyon etib boradi. Umuman olganda Drayzer mustaqil siyosatshunos, o'z qarashlariga ega mustaqil va essentik ya'ni noan'anaviy ideyalogiyaga ega shaxs edi.<sup>1</sup>

1911-yildan so'ng Amerika sahnasiga ancha ko'zga tashlanib qolgan publisist H.I.Menken chiqib keldi. Menken o'z ijodiyoti va "Smart Set" jurnali bilan yaqindan aloqa o'rnatgandi. U yozuvchilar haqida o'y-fikrlarini, qarashlarini, xato va kamchiliklarini va yutuqlarini shu gazeta orqali taqdim etib borardi. Gazeta nashrlarining birida Menken Drayzerni Amerikaning haqiqiy ulug' realisti deb

---

<sup>1</sup> Theodore Dreiser. Essays and Articles. Moscow, 1951. pages 13-14.

e'lon qildi. Bu qo'llab-quvvatlashlarga qaramay hali ham ba'zi g'ayriniyat kimsalarning harakati tufayli ijodkorning ancha ko'p qo'lyozmalari nashriyot ostonalarida qolib ketardi, muharrirlar yozuvchi asarlarini ro'y-rost qisqartirib tashlanardi. Bunga yorqin misol qilib Century kompaniyasini olishimiz mumkin. Bu nashriyot uyi bir necha marta "40 yoshli sayohatchi" ("A Traveller at Forty") asarini qisqartirdi. Natijada uning haqiqiy original nusxasidan 40 ta bo'limi qoldirilib ketildi, omma ahliga taqdim etilmadi va bu katta asar kichkina bir qissaga aylantirildi. O'sha paytda senzura juda qattiq edi. Nashriyotchi-yu muharrirlarga senzura ta'siri cheklanmagan edi. Bu narsa Drayzerni ham cheklab o'tmadi. Uning yana bir asari "The Genius" (1915) asari senzuraga uchradi. Bu asar zudlik bilan kitob javonlaridan olib tashlandi. Ammo haqiqat baribir qaror topadi deganlaridek, bir qancha vaqt, bahs-munozaralardan so'ng asr oxir-oqibat 1925-yilda qayta nashr qilindi.

Ammo minglab kitobxonlar uni asarlarini axtarib kelaveradi, uning yangi asarlarini zoriqib kutishadi, bu esa yozuvchi Drayzerni yangi ijod sari da'vat etaveradi. So'ng u yana katta ishga qo'l uradi. Bu ishi yozuvchining "The Trilogy of Desire" ("Istak trilogiyasi") edi.

"The Trilogy of Desire" ("Istak trilogiyasini") tashkil etgan romanlari "The Financier" ("Moliyachi") (1912), "The Titan" ("Titan") (1914) va "The Stoic" ("Matonatli") (1947) da kapitalistik monopoliyalarning kelib chiqishi va ularning hukmronligi mamlakat iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanday halokatli ta'sir etgani real ko'rsatilgan.

"Moliyachi" romanining qahramoni yosh bola Frank Kaupervud. U akvarumdagi katta qisqichbaqa oldiga kelib qolgan karakatitsa degan maxluqni yutib yuborganini ko'radi. U bunday hayot shunday qurilgan ekan, zo'rlar zaiflar hisobiga yasharkan, degan xulosaga keladi. Frank kapitalistik jamiyatning odamiylikka yot egoistik qonunlarni tez o'zlashtiradi. U vaziyatga qarab beshafqatlik, beburdlik qiladi, yo'lidagi har qanday to'siqlarni bartaraf etadi.

Voqea fuqarolar urushi undan keyingi yillarda bo'lib o'tadi. Shimolning puldor korchalonlari urushda ko'proq foyda olishga intiladilar.

Drayzer “Moliyachi” da o’z davri mamlakat iqtisodiy ahvolini katta realistik kuch bilan tasvirlab, boyluk uchun kurashlarda ishlatilayotgan siyosiy nayranglar va yovuzliklarni ochiq ko’rsatadi. Hamma narsa aqchaga bo’ysundirilganligi burjua jamiyatda ko’pchilik omma uchun baxtli yashash mumkin emasligi juda yaxshi misollar bilan asarda ko’rsatilgan. Amerikada son-sanoqsiz fojiali voqealar, “puldor korchalonlardangina bir pog’ona past turgan sinfnings vakili” degan aqidalar orqali real qilib aks ettirilgan.

Trilogiyaning ikkinchi romani “Titan” da Kaupervud birjachi dallol emas, balki u endi har tomondan rasmiy tus olgan yirtqich kapitalist sifatida ko’rinadi. Drayzer Kaupervudning yovuzligini qoralagani holda uning boyluk, hukumronlikka intilishi, bu yo’lda uchragan hamma to’siqlarni shafqatsizlik bilan ta’riflaydi va shafqatsizlik bilan bartaraf etishi, yemirib tashlashni ham ko’rsatadi. U o’z nafsini qondirishni o’ylaydi. Shuning uchun ushbu asar “Istak trilogiyasi” deb ataladi. Drayzer Kaupervudning ichki dunyosi qashshoq ekanini ta’kidlaydi. Lekin uning chaqqon, g’ayratli, kuchli, aql-idrokli ekaniga qoyil qoladi. Bu esa uning qarashlaridagi ziddiyatlardan, ijtimoiy voqelikni biologik qonunlar asosida talqin qilishidan kelib chiqadi. Yozuvchi katta kapitalistik shahar Chikagoni, shuningdek, kuch-g’ayratga to’lgan bahaybat Kaupervudning o’zini ham qudratli “Titan”, deb ataydi.

Trilogiyadagi “Moliyachi” va “Titan” romanlari Drayzer realistik ijodining yangi bosqichi, imperializm davriga kirgan kapitalizm korchalonlarining vahshiyona harakatlarini fosh etgan asarlardir. Ulardagi Kaupervud obrazi yozuvchining ulkan muvaffaqiyatidir.

“Matonat” yulg’ichilikning foydasizligini tushunib yetgan moliyachi haqidagi hikoyalar to’plamidir. Ushbu asarlar Amerika kitobxonlarining zoriqib kutgan asarlari bo’ldi. Shunday bo’lsada, muxoliflari Teodor Drayzerga shubha bilan qarashadi.

Teodor Drayzer hayotiga N. Lev Tolstoy, Jek London kabi taniqli adiblarning ijodi katta ta’sir ko’rsatadi. Buni Teodor Drayzerning o’zi ham haqli ravishda tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk adiblarning deyarli barcha asarlarini o’qib

chiqqanligini ta'kidlab, uning qarashiga katta ta'sir o'tkazganligini badiiy ijod bo'sag'asiga yetaklab kelganligini alohida e'tirof etib o'tadi. Teodor Drayzer qo'lga ilk bora qalam olar ekan kelajakda Amerika tarixini va haqli hayotidagi muhim voqealarga qo'l urishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham yozuvchi o'zining asarlarida qashshoqlar hayotini, og'ir sinov so'qmoqlarini ko'proq qalamga oladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi, unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa uning tez orada Amerika burjua jamiyati illatlarini payqab oluvchi va ularni fosh etuvchi yirik gumanist yozuvchi sifatida tanilishga yordam berdi.

Uning "Tayanch" (1946) romani, "Yigirma erkak" (1919), "Katta shahar ranglari" (1923), "Zanjirlar" (1927), "Ayollar galeriyasi" (1929) kabi novellalari, "Baraban qoq!" (1920), "Fojiali Amerika" (1931) kabi boshqa publistik to'plamlari nashr ettirilgandi. U 1932-yilda Amesterdamda o'tkazilgan tinchlik va madaniyatni saqlash bo'yicha kongress tashkilotchilardan biri bo'ldi.

Drayzerning Amerika ishchilar harakati bilan aloqasi mustahkamlanadi. U matbuotlarda ishtirok eta boshlaydi. 1931-yilda muhim publistik asari "Fojiali Amerika" ni yozadi. Kitobda monopoliyalar natijasida mamlakatning iqtisodiy ahvoli yomonlashgani, mamlakatning siyosiy, madaniy hayotida tushkunlik kuchayib borayotgani, burjua jamiyatini qurshab olgan umumiy tanglik oqibatida fabrika, zavodlar bekilib, million-million ishchilar ko'chaga chiqarib tashlangani haqida hikoya qiladi.

Drayzer bu kitobda kapitalistik ekspuluatatsiyani qoralab qolmay, mehnatkashlarning o'z ozodliklari uchun xo'jayinlarga qarshi olib borayotgan kurashlarini aks ettiradi; burjua jamiyatining istiqboli yo'qligini, uning o'rniga eng adolatli ijtimoiy tuzum kelishini ochiq aytadi. Yozuvchi "Amerika fojiasida" alohida shaxslarning baxtsizligini tasvirlagan bo'lsa, "Fojiali Amerika" da millionlarning fojiasini ko'rsatgan.

"Istak trilogiyasi" da Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning eng yaxshi namunasidir. Kaupervud Balzak yaratgan pulga o'ch, yuzsiz oltin asosiga

qurilgan kapital dunyosining bosqinchilikdan iborat xarakterini aks ettirgan tipik obrazlarni yaratganligini eslatadi.

Adib yozib tugatishga ulgurmagan “Matonatli” romanida burjua jamiyatida tug’dirgan baxtsizlik va qashshoqlikdan qutilish uchun kapitalistik eksplutatsiyaga qarshi keskin kurashish zarur, degan xulosaga keladi. Shunday qilib, “Istak trilogiyasi” adolatli jamiyatga ishonch ruhida tugaydi.

1915-yilga kelib “Daho” va 1925-yilda “Amerika Fojiasi” romani yozilgandan so’ng Drayzerning ijod darvozasi keng ochildi.

“Daho” (1915) romanida yozuvchi burjua jamiyatida haqiqiy san’atkor talantining barbod bo’lishini ko’rsatadi. Asar qahramoni katta iste’dodga egasi rassom Yudjin Vitladir . U o’z ijodida mehnatkash ommaning og’ir ahvolini, ko’zga tashlanib turadigan daxshatli voqealarni real aks ettiradi, chunki u shu narsaga intiladi. Bu haqiqiy san’at ko’pchilikka ma’qul bo’ladi. Biroq ularni sotib olishni imkoni bo’lmaydi. Bunday surat puldorlarga yoqmaydi, shuning uchun ular olmaydilar. Yashash imkoniyatlaridan mahrum etilgan rassom o’z san’atini tashlab, savdo sohasidagilarga katta manfaat keltiruvchi reklama firmasiga o’tadi. Undan so’ng bir nashriyotning direktori sifatida boyib, puldor-korchalonlarga foyda keltiradigan ish qilish bilan o’z talanti va san’atini barbod etadi. Yudjin butunlay o’zgarib, ijod etmay qo’yadi. Shunday qilib, uning dahosi yemiriladi.<sup>1</sup>

Drayzer qahramon talantining yemirilishini kapitalizmning halokatli ta’siri debgina emas, balki, shuningdek, biologik omillar oqibati, deb qarasa ham, lekin asardan kapitalistik Amerika haqiqiy realistik san’atning yovuz dushmani, degan aniq g’oyaviy mazmun kelib chiqadi. Shu sababli reaksion doiralar “Daho” romanini taqiqlashga erishadilar. Asar o’z zamonasidagi illatlarning negizini o’sha uzoq o’tmishda ko’radi va unga tanqidiy munosabatda bo’ladi. Biroq Drayzer bu safar o’z zamonasining dushmanlari bilan mardonavor kurash olib boradi va 1923-yilda asarini qayta nashr ettirishga muvaffaq bo’ladi.

---

<sup>1</sup> Засурский Я.Н. Теодор Драйзер: жизнь и творчество, М.,1977. стр. 33-35

“Amerika fojiasi” voqelikni keng qamrab olishi, ko’tarilgan g’oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng yaxshi realistik asarlari qatoridan joy oldi.

Ushbu romanida Drayzer pulning san’at ustidan fojivaviy hukmronligi va qanday yo’l bilan bo’lmasin, ijtimoiy “yutuqqa” erishishga intilgan “o’rta hol” yigitning ma’naviy halokati haqida hikoya qiladi. Undagi favqulodda katta talantni butun Amerika kitobxonlari olqishlaydi.

U o’z ijodida realizm bilan naturalizm tamoyillarini birlashtirgan “Baxtiqaro Kerri” (1973), “Amerika fojiasi” (1976) va “Jenni Gerxardt” (1982) kabi romanlari o’zbek tiliga nashr qilindi.

Teodor Drayzer ko’pgina adiblar singari talaygina asarlar yozmadi. Uchtagina romanining o’zi jahon adabiyotini bazab turdi.

Mashaqqatli hayot va ijod yo’lini bosib o’tgan Drayzer Amerika adabiyotida sotsialistik realizm metodini boshlab bergan adibdir. Jahon adabiyotida tabiat tomonidan in’om etilgan talantdir.

Keling Drayzer asarlariga yana bir nazar tashlaylik:

8 ta yirik roman: “Sister Carrie”, “Jenny Gerhardt”, “The Genius”, “Financier”, “American Tragedy”, “Titan”, “The Bulwark”, “The Stoic”. Shulardan “The Bulwark” va “The Stoic” Drayzer o’limidan keyingina nashr etilgan. Bundan tashqari Drayzer she’riyatda ham ijod qilgan: “Moods, Cadenced and Disclaimed”(1928), “Moods, Philosophical and Emotional”(1935). Hikoyalari: “Free and other stories”(1918), “Lesser novels and stories”(1927). Pyesalari: “Plays of the Natural and super natural”(1916), “The hand of the Potter”(1918). Sayohatlari haqidagi kitoblari: “A Traveller at Forty”, “A Hoosier Holiday”(1915), “Dreiser looks at Russia”(1928).<sup>1</sup> Avtobiografik asarlari: “Newspaper Days”(1922), “Dawn”(1931). Falsafiy asarlari: “Hey Rub-a Dub-Dub”. Sotsial-tanqidiy asarlari: “Tragic America”(1932), “America is worth saving”(1941).

---

<sup>1</sup>Thomas P.Riggio “Biography of Theodore Dreiser”, 2000.page 284.

Character sketches: “Twelve Men”(1919), “A Gallery of Woman”(2 qismli) (1929), “The Living thoughts of Thoreau”(1939).<sup>1</sup>

1920-yillarga kelib Drayzer Amerikada adabiyot ozdligi uchun kurashgan qari jangchi sifatida mashhur bo'ldi va u bu urushda g'alabaga erishdi. 1927-yili Sovet hukumati Drayzerni Oktyabr Revolusiyasining 10 yillik yubileyi munosabati bilan Moskvaga taklif qilishgan. 1928-yilda Rossiyadagi safaridan qaytib kelgach Drayzer bu sayohati haqida gazetaga maqola yozadi. 1930-yilga kelib u kam ijod qildi, o'zini siyosatga bag'ishladi. Amerika imperializmiga qarshi nutq so'zladi, bir qancha antifashist tashkilotlarida nutq so'zladi, Parijdagi Xalqaro tinchlik konferensiyasida qatnashdi, u jamiyat hayotidagi muammolar haqidagi fikr-mulohazalarini “Tragic America” asarida bayon qildi. 1938-yilda Drayzer Nyu-Yorkni tark etadi va Kaliforniya shtatiga borib joylashadi, u yerda umrining oxirigacha ikkinchi turmush o'rtog'I Helen bilan yashaydi. Uning oxirgi ikkita romani “The Bulwark” va “The Stoic” uning eng muhim asari hisoblanadi. Chunki bu asarlari orqali uning oldingi asarlarining mazmun mohiyatini tushunish mumkin.

Drayzer “America is worth saving” asarida ingliz imperialistlarining yordamiga qarshi chiqqan, urushdan foyda oladigan amerikaliklarni tanqid ostiga olgan. Drayzer 1944-yil oxirgi marta Nyu-Yorkga boradi. U yerda Amerika San'at va Xatlar Akademiyasidan mukofot oladi. Akademiya Drayzerning mashhur asarlari sanalmish “Baxtiqaro Kerri” hamda “Amerika Fojiasi” asarlarini buyuk romanlar qatoriga kiritgan, ular asosida bir qancha filmlar suratga olingan. Drayzer Amerika adabiyoti tarixida buyuk realist-naturalist deb hisoblangan, dunyo adabiyoti tarixida buyuk yozuvchilar qatoriga kiritilgan. Drayzer 1945-yilning 28-dekabrida “The Stoic” asarining oxirgi bobini yozayotgan bir paytda olamdan o'tdi. Bu asar uning oxirgi qiziqishi bo'lgan induizmga bag'ishlangan. Keyinchalik xotini Helen Drayzer uni nashrga bergan.

---

<sup>1</sup>Newlin, Keith (2003) “A Theodore Dreiser Encyclopedia”. Greenword Publishing Group, page 78.

Drayzer Golivudda Forest Lavn qabristonida 1946-yil 3-yanvarda ko'mildi.  
Ko'mish marosimida do'sti H.L.Menken Drayzer haqida shunday deydi:

“Shak-shubhasiz u buyuk yozuvchi edi, Amerika adabiyoti undan oldin va keyin o'zgardi, xuddi biologiya Darvin yashagandan oldin va keyin o'zgargandek”.

Boshqa do'sti Charli Chaplin Drayzerning “The Road I came” she'ridan parcha o'qidi:

Oh space !

Change !

Toward which we run

So gladly,

Or from which we retreat

In terror

Yet that promises to bear us

In itself

Forever

Oh, what is this

That knows the road I came?<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Николюкин А. Писатели США о литературе. Москва, 1982. стр.54-55.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Teodor Drayzer realist va naturalist yozuvchidir. Naturalizm haqida yozishdan oldin, realizm haqida to'xtalib o'tamiz.

Realizm – (lotincha realis – moddiy haqiqiy ) falsafiy yo'nalish . Unga ko'ra, ongdan tashqaridagi mavjud reallik go'yo ideal obyektlarning mavjudligidan yoki subyektni bilish jarayonida va tajribaga bog'liq bo'lmagan bilish obyektidan iboratdir.

XIX asr oxiridagi Amerika yozuvchilari uchun realizm faqat bir adabiy vosita bo'lib qolmadi. Bu haqiqatni garirish va siyqasi chiqqan an'ana-yu aqidalarni yo'qqa chiqarish yo'li edi. Shu tariqa bu yo'nalish erkinlik kirituvchi va jamiyat bilan zid keluvchi maqom kasb etadi.

Zamonaviy realizmning muhim yo'nalishlari: tarixiy materializm, norealizm, neotolizm va yangi ontologiya hisoblanadi. Yangi ontologiyaning mazmunini metafizik realizm tashkil etadi.

Realizm – voqelikni mavjud borliqni badiiy adabiyot va san'atning ifoda vositalari orqali o'ziga o'xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish.

Adabiyotda realizm – hayotni voqelikdagi voqea va hodisalarga muvofiq ravishda obrazlar orqali aks ettirish metodi. Realizm – adabiyotning o'zini va tashqi olamni bilish vositasini sifatidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda voqelikni barcha ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi, yozuvchiga hayotning barcha tomonlarini cheklanmagan holda aks ettirish imkoniyatini beradi. Realizm metodiga asoslangan adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Binobarin, realizm adabiyoti jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yuksak bosqich hisoblanadi.

Realizm keng ma'noda Gomer va Dante, Shekspir va Rasin, Firdavsiy va Navoiy ijodiga xos xususiyat, zero, ular ijodi hayotiylik va samimiylikka tayangan. Ammo realizm adabiy yo'nalish sifatida yozuvchilar voqelikni hayotiy aks ettirish tamoyiliga asoslanadi, inson va tashqi olamni ongli ravishda o'rganish va bilishni taqazo etadi. Shu ma'noda jahon adabiyotida XIX asrga kelibgina o'z taraqqiyotining realizm metodiga asoslangan yangi bosqichga erishiladi.

Realizmning metod sifatida paydo bo'lish vaqti masalasida adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar hayotni realistik tasvirlash usullari qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgani va bu usullarning turli bosqichlarni bosib o'tgani nazarda tutib, antik realizm, uyg'onish davri realizmi va sotsialistik realizmi tushunchalarining mavjudligi haqidagi qarashlarni olg'a surib keladilar. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, realizm ijodiy metod sifatida XVIII asrda oilaviy maishiy va ijtimoiy-maishiy romanlar yaratilishi bilan bir vaqtda maydonga kelgan realizmning XIX asrning 30-yillarida Yevropa adabiyotshunoslari tomonidan qabul qilingan bo'lib, bu fikr Yevropa xalqlari adabiyotlarida voqelikni haqqoniy tasvirlash tamoyili yuksak ijtimoiy-tahliliy shakllarida keng va teran ifodalanishi bilan tasdiqlanadi. XIX asrdan boshlab ko'pchilik xalqlar adabiyotida yetakchi ijodiy usul sifatida tanqidiy realizm maydonga chiqadi. XX asrdan bu ijodiy metodning gurkirab rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarning tobora kuchayib borishi va kishilar tomonidan hayotiy shart-sharoitlar insonning insondek yashashi uchun nomunofiqligi chuqurroq anglashi uchun shu bilan bog'liqdir. Turli mamalatlarda tanqidiy realizm taraqqiyoti va xususiyatlari aynan bir xil bo'lmagan. Muayyan xalq hayoti iqtisodiy o'sishi darajasi va boshqa shart-sharoitlarning o'ziga xosligi adabiyotning ham o'ziga xosligi bildirar edi. G'arb tanqidiy realizmining qashshoqligi, oddiy kishilar insoniy qadr-qiymatining oyoq osti qilinishi jinoyat va foxishabozlikning ortishi, kishilarning ma'naviy tubanlashuvi va bir-birlaridan uzoqlashuvi singari kapitalistik turmushga o'ziga xos daxshatli kurslar nihoyatda haqqoniy hamda ta'sirchan aks ettirildi. Voqelik tasviridagi haqqoniylik va ta'sirchanlik realizm taraqqiyotiga ulkan ulush bo'lib qo'shildi.

Teodor Drayzer singari realistik yozuvchilar hayotining turli tomonlarini, xususan, jamiyat, tabiat hodisalarini inson tafakkuri va ruhiy olamini keng ko'lamda qamrab olishga intilar, ular orasidagi aloqadorlikni sababiylikni ham e'tibordan chetda qoldirib turmaydilar. Ma'lumki hayotda hech bir narsa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, bir hodisa ikkinchisini taqazo etadi, ikkinchisi uchinchisini yuzaga keltiradi, bir hodisa keyingilariga o'zidan sabab bo'ladi.

Jamiyat, tabiat, inson tafakkuri, ichki olami hatti-harakatlarida doim mana shu sababiylik qiladi. Hayotni haqqoniy aks ettiruvchi realist san'atkorlar o'z asarlarida bu qonuniy aloqadorlikni ham qamrab olishlari tabiiydir.

Yangi davr chet el adabiyotidagi asosiy adabiy oqim – tanqidiy realizm. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida adabiyotni hayotga yaqinlashtirishda ma'lum xizmat qilganlardan romannavis va tanqidchi Teodor Drayzer (1871-1945). U adabiyotda sun'iylik va shartlilikga qarshi chiqib, "Nozik realist" larning favqulodda, alohida voqealarni tasvirlay olishiga javoban kundalik hayotda uchraydigan hodisalarni real ko'rsatishga chaqirdi. Shu bilan birga 1900-yillardagi asarlarida Amerika taraqqiyoti va hayotining o'ziga xos "afzallik" larini ustivorlik ruhida olib borar edi. Drayzer XIX asr oxiridagi Amerika realistlaridan biridir.

Amerika adabiyotida tanqidiy realizm XIX asrning birinchi yarmidan boshlab, A.Q.SH. da qulchilik tartiblarini bekor qilish uchun kurash harakati – abolitsionizm bilan birga kuchayib ketdi. Bu harakat XVIII asrning oxirgi choraklarida paydo bo'lgan. 1775-yili Amerika abolitsionistlatining birinchi tashkiloti barpo qilingan edi. Agar 1831-yilda A.Q.SH.da yuz bergan yaqin qulchilikni bekor qilish uchun kurash klublari oz sonli bo'lsa, 1840-yilda bu klublarning soni ikki mingga yetdi. Bu harakat o'z safiga mashhur Amerika jamoat arboblari, yozuvchilarini birlashtirgan edi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashagan realistlar ijodida sotsial tengsizlik zulmi daxshatini fosh etish bosh masala bo'lib qoladi. Ma'lumki, har bir yozuvchining o'ziga xos tasvirlash usuli bor.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida qaror topgan tanqidiy realizm burjua adabiyoti o'zi, mohiyati va uning demokratik, antiimperialistik xarakteridadir. Tanqidiy realizm burjuaziya jamiyatiga va uning zulm-daxshatlariga qarshi norozilik turli me'yorda, ba'zilarida kuchli shu bilan birga, bir xilda mo'tadil holda namoyon bo'ladi. Va bundan tashqari realistlar o'z ijodlarida tinchlik, ozodlik g'oyalarini ham ifoda etadilar. Lekin hali bu tipdagi yozuvchilarning ko'plari xalq ommasidan uzoq edilar, shuning uchun ular ozodlikka erishish yo'llarini ham to'g'ri tasavvur qila olmasdilar. Bunga ularning

turlicha muhitda yashaganliklari va ba'zan idealistlarning reaksion falsafiy qarashlari ta'siriga tushib qolishlari sababchidir. Masalan, insonparvar Anatol Frans sotsialistik harakatga yaqin turgan yozuvchi, lekin u hayotining ma'lum davrida tarixning takrorlanishi g'oyasini yoqlagan. Yana boshqa ulug' yozuvchilar ancha vaqtgacha yomonlikga yaxshilik qil, zo'ravonlikka qarshi turma, degan falsafani targ'ib qilganlar. Bundan tashqari, tanqidiy realizm o'z rivoji davomida turli adabiy oqimlarga duch kelgan va qisman ular ta'sirida bo'lgan. Turli taraqqiyparvar yozuvchilar turli adabiy an'analardan foydalanadilar, lekin ularning ijodiga xos narsa demokratizm ozodlik va tenglik bo'lib, burjua hayosizligiga qarshi kurash asosiy masala tarzida qolaveradi. Realist yozuvchilar burjua-tushkunlik adabiyotining turli ko'rinishlariga qarshi kurash olib bordilar.

Naturalizm asosan, dastlabki realist yozuvchilarning an'alaridan kelib chiqqan, ba'zilar, hatto uni "kuchaytirilgan realizm" ham deb atashdi.<sup>1</sup> Shuningdek, bu oqim fransuz yozuvchisi Emili Zolya ishlaridan ham kelib chiqqan, u taqdir boshqargan dunyoga ishonmagan, balki dunyo asosan, atrof-muhit va jamiyat tomonidan tayinlanishiga ishonadi. Ilmiy determinizm Zolyaning inson tabiatini o'rganishidagi bosh vositasi bo'ladi. U o'zining bunday yangi uslubini "Le Roman experimental" (Roman tajribasi) deb atadi va bu yerda endi romannavis olimdan ustunroq tarzda faoliyat ko'rsata boshlagandi. Yozuvchi uchun to'g'ridan – to'g'ri kuzatuv ijodiy tasavvuridan joy oldi. Hayot-yozuvchi maqsadi uchun boy mavzu va syujetlarni ta'minlab berdi. Amerika naturalistik adiblar ijodi uchun sermahsul va e'tibor molik davr, ayniqsa 1890-yilda XX asrning ikki o'n yilligiga qadar cho'ziladi. 1870-yildan boshlab AQSH da bir qator dramatik o'zgarishlar sodir bo'lgan va ko'plab yosh yozuvchilar o'zgarayotgan davrni tushunish uchun yanada kuchliroq adabiyotga ehtiyojlari borligini sezishadi. Frenk Norris, Stefen Kreyn, Jek London va Teodor Drayzerdek yozuvchilar shular jumlasidandir. Ularning barisi 1870-yilda tavallud topgan. O'sha davrda sodir bo'layotgan madaniy o'zgarishlarning ko'p qismini o'zlarida singdira olgandilar, natijada ular shunday asar yozish uslubini yaratdiki, unda dunyo o'z insonlariga befarq edi.

Biz yuqorida bu davrda juda ko'p dramatik o'zgarishlar bo'lib o'tdi, deb aytib o'tdik bu o'zgarishlarga quyidagilarni kiritish mumkin;

- XIX asr so'ngida fanning o'sishi:
- Juda ko'p ilg'or tarzda texnologiyaning rivojlanishi:
- Temir yo'l qurilishining yakunlanishi va sanoatdagi o'zgarishlar va boshqalar.

"Naturalizm" termini inson mavjudotini o'rganishga obyektiv va ajratish ilmiy prinsiplarini ochib berishga harakat qiladigan adabiyotning bir tipini tasvirlaydi. Realizmga o'xshamagan holda (chunki realizm adabiy texnikaga

---

<sup>1</sup> <http://xroads.Virginia.edu/~Hyper/Realism/chap 01/htm 1>.

asoslangan) naturalism falsafiy holatni ifodalaydi, naturalist yozuvchilar uchun Emili Zolyaning fikricha “inson mavjudotlari, xarakterlar ularning atrofida bo’lgan bog’liqlik” orqali o’rganish mumkin.

Insonlarning bunday obyektiv o’rganish orqali, naturalist yozuvchilar insonlar hayotini boshqaradigan kuchlar zahirida yashiringan qonunlarni o’rganish va tushunish mumkinligiga ishonishdi. Shunday qilib, naturalist yozuvchilar o’z asarlarini yozish uchun ilmiy metod versiyasini qo’lladilar. Ular instinktlar va kuchli his tuyg’u orqali boshqariladigan insonlarni, shuningdek atrof-muhit va nasl tomonidan inson hayotini boshqaradigan kuchlarning turli holatlarini o’rganadilar garchi ular realistlar qo’llagan jamlangan ifoda texnikalaridan foydalangan bo’lishsada, naturalistlar fikrining asosida maxsus obyektlari bo’lib, o’zlari xohlagan narsani berishda reallik bilan bog’liq segmentni tanlaydilar . Jorj Bekkerning mashhur ko’p qo’llagan va isbotlagan jumlasiga ko’ra naturalizmning tuzilishi oddiygina “pessimistik materialistik determinizm” sifatida tasvirlanishi mumkin. Yana shunday boshqa ta’riflarni “American realist : New essays ” kitobining muqaddimasida ko’ramiz. “Moviylarning saltanati” (The country of the Blue) asarida Erik Sundkvist quyidagicha fikr bildiradi: “Insonning tabiatidagi o’rmini yaqqolroq ochib berish uchun g’ayrioddiylik tasodifiy va xunuklik bilan bog’liq holda naturalizm fiziologik jihatdan o’zlikdan ayrilishni bayon etadi. ” Bu kabi yana bir qator ta’riflarni uchratish mumkin. Misol tariqasida Donald Lizerning “XX asr Amerika nasrida realizm va naturalizm” (1984) asrida shunday ta’riflardan birini ko’rishimiz mumkin.

Naturalistik roman, asosan ikki xil qarama-qarshi yoki ziddiyatni o’ziga qamrab oladi. Ularning ikkalasi ham tajribani tahlil etish va tajribani qisman estetik qayta ijod qilishni o’z ichiga oladi. Ularning ikkalasi ham tajribani tahlil etish va tajribani qayta ijod qilishni o’z ichiga oladi. Bularning ikkalasi naturalist romannning asosiy g’oyasi va shu g’oya hosil qiladigan inson tushunchasi orasidadir. Naturalist asosan o’z qahramonlarini o’rta sinf yoki pastki sinf orasidan tanlaydi. Uning nasriy dunyosi juda ko’p va oddiy, unda hayot kundalik borliqning zerikarli muhitdek tuyuladi, unda bir kun har kungidek davom etadi. Ammo

naturalist bu dunyoda o'z qahramonining shunday qirralarini kashf etadiki, ular qahramonona va sarguzashtga boy holda tasvirlanadi. Ko'pgina qahramonlarning hayotida zo'rlash yoki kuch ishlatish kabi harakatlar bo'ladiki, bunday holatlar qo'rqinchli o'lim yoki tashvishli daqiqalarga olib keladi. Shunday qilib, naturalist roman realizmning namunasidir, ammo unda voqealar real hayot bilan birga mahalliy ta'sir bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Naturalist faqatgina o'z materialida inson tabiatida g'ayrioddiylik va tasodifiylikni kashf etadi.

Ikkinchi ziddiyat – naturalistik romanning mavzusini hal etadi. Naturalistik yozuvchilar ko'pincha o'z xarakterlarini xuddi, ular atrof-muhit, nasl-nasab, instinkt yoki sharoit tomonidan boshqaradigandek tasvirleydi. Ammo shuning bilan birga u o'z qahramonlarida va ularning qismatlarida insoniy qadr-qimmatni ham ajratib ko'rsatadi. Bu qadr-qimmat ularda va hayotidagi bebaho fazilat bo'lib qoladi. Bu yerda ziddiyat XIX asr so'ngidagi dunyo ko'rgan hayot va fikrlardan kelib chiqqan haqqoniyatdan naturalistning yangicha roman yartish haqidagi istagi va inson qiymatini baholashdagi xarakteridan biroz bo'lsada ma'no topish orzusi orasidagi bog'liqlikdir.

Drayzer romanlari misolida ko'radigan bo'lsak, uning “Baxtiqaro Kerri” va “Jenni Gerxardt” i orasida farqni ko'rishimiz mumkin. Ulardagi ikkala bosh qahramonning hayoti ham jamiyat, davrning qandaydir ko'rinmas kuchi tomonidan boshqarilgandi. Ikkalasi ham sharoit tufayli orzu qilsa bo'lmaydigan hayotda yashashadi. Ammo Kerri yaxshi hayot uchun barcha ma'naviy xislatlaridan ajralib qoladi. Ularning ikkalasi ham naturalist romanga misol bo'la oladi.

Birinchi jahon urushidan so'ng, Amerika xalqi va mualliflarning ba'zilar urush jamiyatiga ko'rsatgan ta'sirdan tashvishga tushishgandi. Amerika jamiyatida sodir bo'lgan va bo'layotgan voqealarni ifodalash uchun adabiyotga muhtoj edi. Amerikalik yozuvchilar modernizm deb atalgan yo'nalishga yuz tutishdi, o'sha davrda bu oqim yangi yo'nalish edi. XIX asr realizmi, naturalizmi va Amerika xalqi hayotining tasviri birinchi jahon urushidan keyingi modernizmga yaqqol namoyondir. Bu ikki yo'nalish orasida juda ko'p o'xshashliklar va umumiylik mavjud. Realizm birinchi jahon urushidan keyingi Amerika jamiyatini aniq va

shavqatsiz tasvirlash bilan birga, urush qoldirgan jarohatlarga davo izlashga, muammolarga yechim topishga harakat qiladi.

XIX asr so'ngidagi realist yozuvchilar hayot va uning muammolarini yaqqol tasvirlashga urindilar. Realistlar hayotni uning bor kamchiliklari bilan ko'rsata oldilar. Ular hayotning faqatgina bir qirrasini emas, balki turli xil sinflar, hayot tarzi va turmushni ko'rsatishga urundilar. Realistlar bunday manzarani uzoq kuzatish va o'rganish asosida vujudga kelgan bir qator detallar yordamida chizdilar. Shuning bilan birga realistlar Amerika hayotini haqqoniy hayot bilan taqqosladilar, boshqacha qilib aytganda realistlar Amerika jamiyatiga to'g'ridan-to'g'ri nazar tashlab, mavjud bo'lgan o'sha kamchiliklarni ajratib ko'rsatishga urindilar.

Bu realistik harakat Amerika madaniyatidagi ko'p o'zgarishlar va boshqa millatlardan kirgan yangi an'analar natijasida rivojlandi. 1800-yillar AQSH dagi iqtisod, jamiyat va madaniyatdagi o'zgarishlar tufayli o'z boshidan rivojlanish va o'sish jarayonini kechirayotgan edi. Ikki yetuk yozuvchilar Genri Jeyms va Vilyam Din Xovelz, Amerika hayotidagi o'zgarishlarni aniq tasvirlashni tipik realistik metodlarini ishlab chiqadilar. Vilyam Din Xovelz Amerika madaniyatini boshqa mamlakatlarnikiga taqqoslab o'zining jamiyatni komik tanqid qilish metodini ishlab chiqdi. O'zining komik asarlarida Amerikadagi ma'naviyat va etikani tanqid qiladi, ammo baribir hayotni borligicha aniq tasvirlashga muvaffaq bo'ldi. U keskin o'zgarishlar tufayli vujudga kelgan ma'naviy qiyinchiliklarning asosiy qismini ochib berishga urindi va qattiq tanqid ostiga oldi, u asarlarda hayot qanday bo'lsa, shunday bo'lishi mumkin ekanligiday yoritilmasligiga ishondi. Buni amalga oshirish jarayonida Xovelz roman qahramonlari ularning ilhomlanishi va taqdirlarini qanday qilib hayot shakllantirishini ko'rsatib bera oldi. Shu qahramonlar kuchiga asoslangan holda hayot zulmatga qaraganda qanchalik yaxshiroq ekanini namoyon eta oldi. Boshqa tomondan Genri Jeym dunyoni boshqa tomonlama muhokama qiladi. U o'zining Amerikadan ayro tutgan holda boshqa xalqlar nazari orqali shavqatsiz manzarani aks ettirishga urindi. U Amerikadagi ijtimoiy qadr-qimmatni va shaxsiy fikrni qarama-qarshi holda turli

ijtimoiy sinflarni ta'minlagan, farqlab turuvchi faktorlarni ifodalab berdi. Shunday qilib, bu yozuvchilar, Amerika adabiyotiga o'z tanqidiy fikrlarini qo'shib, o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida haqqoniy manzarani chiza olishdi.

Naturalistik harakat ham xuddi realizmdek hayot haqqoniyatni topish uchun urinish maqsadida sekin rivojlana bordi. Realistlarga qarshi o'laroq naturalistlar hayotning nafaqat go'zal tomoni, balki axloqsiz tomonini ko'rishdi va qanday qilib insonlarni mas'uliyatdan cheklanganining guvohi bo'lishdi. Adabiy naturalizm yozuvchilarga insoniyatni obyektiv jihatdan o'rganishni taklif qildi, bu xuddi olim tabiatni o'rgangani bilan barobardir. Shuning uchun bu oqim "O'tkir realizm", "naturalizm" deb ataladi. Xunuklik va qo'pollikni tasvirlayotib mualliflar o'zlarini va'z o'qishdan tutdilar: ular tasvirlayotgan hayot haqida xulosa chiqarishni kitobxonlarning o'ziga havola etdilar. Umuman bu mualliflar hayotni tasvirlashda pessimistik ruhni tanladilar, bu tasvir insonning salbiy xususiyatlarini ko'proq ifodalaydi. Jamiyat bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langanda, naturalistlar, asosan insonlar tanazzulini hech qanday hissiyotsiz mukammal bayon etdilar. Buni amalga oshirish uchun, ular tabiatni jamiyat ramzi sifatida ifoda etib foydalangan holda undagi muammolarni ochiqroq yo'l bilan yaqqolroq yozishdi. Naturalistik adabiyot, xuddi realist adabiyotdek, o'zgarishlar uchun asos bo'lib xizmat qildi, ammo unga qarama-qarshi ravishda biroz propagandaga ham o'xshab ketadi.

Teodor Drayzer naturalizm oqimidagi ijodkordir. Endi biz bu yozuvchini shu oqim namoyondasi sifatida, uning bu oqimda erishgan yutuqlari-yu qilgan ishlarini tahlil qilsak. Teodor Drayzer Amerika naturalizm maktabining ilg'or o'quvchilaridan biri ekanligini o'zining yozgan asarlari bilan o'z isbotini topgan. Uning asarlarining asosiy manbai shahar hayotining xatarli muhiti, erkinlik sarqitlari bilan kasallangan ota-onalar va Amerikalashgan bolalar o'rtasidagi nizo, hayot bo'shliqlari, boylikka ruju qo'yish, yaxshi hayotga intilaman deb o'z qadr-qimmatidan ayrilish, riyokorlik, vafosizlik, tanqislik va nihoyat ijodkorning o'z shaxsiy hayoti hisoblanadi.<sup>1</sup> Naturalizm qonun - qoidalariga qat'iy amal qilgan holda Drayzer naturalistik ruhda asar yaratadi va uning obrazlari jamiyatda o'z

---

<sup>1</sup> <http://www.google.com>

hurmatini yo'qotgan, xavas qilinmaydigan xulq-atvor va vijdon sofligidan ayrilgan qahramonlar yaratadi. Yozuvchi asarni yozishga yozgan-u ammo bu asarning g'ayritabiiy ruhda yozilganligi va omma fikrining o'zgarishini o'ylab yozuvchi uni e'lon qilmaydi va arzon narxda boshqa kimsaga pullab yuboradi. 1925-yil yaratgan asari "Amerika fojiasi" Jek Londonning "Martin Iden" asari singari Amerika orzusini yana bir bor kashf etadi. Bu roman o'z ichiga katta detallarni qamrab oladi. Bunda Klayd Grifts hayoti haqida hikoyalanaadi. Klayd Grifts irodasi sust va biroz xudbin, u oilasining katta diniy bosimi ostida ulg'ayadi, boylik, muhabbat va go'zal ayollar ishqibozi. Klaydning boy amakisi uni ish bilan ta'minlaydi o'z fabrikasida. U yerda u bir go'zal, ammo kambag'al qiz bilan tanishadi va u bilan ya'ni Roberta bilan ishqiy munosabatda bo'ladi va Roberta undan homilador bo'ladi. Va unga uylanishini talab qiladi. O'sha paytda Klayd jamiyatning boshqa bir a'zosi qaysiki, unga boylik, quvonch va muvaffaqiyat ato etgan Sondra Finchlini sevib qoladi. Bu orada yigit Robertadan qutulish yo'lini izlaydi va uni qayiqqa sayr etishga taklif qiladi. Robertani cho'ktirish yo'li bilan undan qutulmoqchi bo'ladi. Ammo taqdir izmini qarang-ki, so'nggi, daqiqada yigit o'z fikridan qaytadi, ammo biroq tasodifan qiz qayiqdan yiqilib cho'kib ketadi. Klayd suzishni yaxshi uddalagani bilan qizni qutqara olmaydi. Qiz nobud bo'ladi. Bu asarida Drayzer yomon illatlar qanchalik darajada inson ruhiyatiga ta'sir qilishini ochib bergan va o'sha paytdagi jamiyat hayotining notekisligi, inson umrining qadrsizligi, boylik va hayotning baland-pastini yaxshi anglamagan, jamiyat qurboniga aylangan yigit va o'n gulidan bir guli ochilmagan muhabbat va kambag'allik aziyatchisi Robertaning umri xazon bo'lishi asarda Drayzer qo'rqmay Amerika hayotining naqadar chalkash ekanligini real tasvirlaganidan biz uni naturalizm dohiysi deb atashdan o'zga ilojimiz yo'q.

2.2. “Amerika fojiasi” romani XX asr Amerika orzusining xavf-xatarlarini ochib beruvchi shoh asar.

“Amerika fojiasi” nafaqat Amerika adabiyoti balki jahon adabiyotining eng sara asarlaridan biri. Ushbu romanda boylik va kambagʻallik orasidagi kuchli tafovutni aks ettiruvchi Amerikagacha yoʻl koʻrsatib berilgan.

Ushbu roman asosini tashkil etuvchi syujet muallifni uning adabiy faoliyatining boshlaridanoq qiziqtirgan edi. “Amerika fojiasi” 5 yillar chamasi vaqtda yaʼni 1920-1925-yillar oraligʻida yozib tugatilgan.

Muallifning rafiqasi Elen Drayzerning eslashicha, yozuvchining “Amerika fojiasi” deb sarlavha qoʻyilgan qoʻl yozmasida asarda tasvirlangan hodisalarga oʻxshash 15 xil voqealar tavsifi yozilgan edi. Ularning barchasi ham amerikalik yigitlarning boyib ketish ilinjida oʻziga toʻq oilaning qiziga uylanishni maqsad qilib olganligi ifodalangan. Ushbu maqsadlari yoʻlida ular har narsaga, hattoki jinoyatga ham tayyor edilar. Shunday voqealar tasvirlangan maqolalarning barchasi bilan tanishib chiqqan. T. Drayzer oʻz romanining asosiga 1906-yil sodir boʻlgan, Chestr Jillet ismli kimsaning oʻz sevgilisi Greys Braunning joniga qasd qilganligi haqidagi voqeani kiritdi. Ushbu jinoyat shunchalik ovoza boʻldiki, hatto “Amerika fojiasi” romanida oʻsha ish yuzasidan gazetalarda chop etilgan fakt va hujjatlardan foydalanildi. T. Drayzer oʻsha davrda urf boʻlgan, Amerikada keng tarqalgan romanlar, yaʼni kambagʻal yigitning boy qizga uylanib boyib ketishi va shu bilan amerikalik yoshlarga taqdirni osongina oʻzgartirish haqidagi uydirmalarga ishonishga olib keluvchi asarlarga qarshi edi.

“Amerika fojiasi” romanida ham yozuvchi shunday yigit obrazini, yaʼni boylik ketidan quvib, yoʻlida uchragan narsani urib keta oladigan amerikalikni yaratdi, ammo shu bilan birga ushbu yoʻlning naqadar chigalligini koʻrsata oldi.

“Amerika fojiasi” romani oʻsha davr Amerika hayotining yaqqol tasviri edi. Amerika hayotini har tomonlama qamrab olishga intilish yozuvchining 1927-yil 20 –aprelda Jek Uilsga yozgan maktubida oʻz aksini topgan: “Men ushbu voqea haqida uzoq oʻyladim, menga u nafaqat milliy hayotimizning har bir nuqtasi siyosat, jamiyat, din, biznesni koʻrsatibgina qolmay u Amerikada tugʻilib oʻsgan

oddiy amerikaliklarning hayot tarixiga o'xshaydi. Bu ayniqsa hayot shaxsni o'zgartira olishi, shaxs esa hayot qiyinchiliklariga bas kela olmaganligi haqidagi ayni haqiqatdir..."<sup>1</sup>

Muallif ushbu romanda jamiyatning oddiy amerikaliklarning hayotiga mas'uliyatsizligini ko'rsatib bera olgan. Pulga, boylikka hirs amerikalik yoshlar Roberta Uolden va Klayd Griffitsning fojiaiy halokatiga sabab bo'ldi. Klayd millionlab amerikaliklarning tipik vakili. U Amerika burjua jamiyati qabohatlari qurboni bo'lgan son-sanoqsiz yoshlarning vakilidir. Amerika hamma uchun barobar imkoniyatlar mavjud mamlakat degan safsatani fosh etdi.<sup>2</sup> Haqiqatda kun kechirish qiyinlashib ketmoqda, qayg'uli hayot Amerika yoshlarini baxtsizlikka fojiali o'limga duchor qilmoqda edi. Klayd voqeasi burjua siyosatdonlariga bir o'yin hisoblanadi. Gunohi aniqlanmasdan turib, Klaydning taqdiri hal etiladi. Klaydning boy qarindoshlari uni o'limdan olib qolishlari mumkin edi. Lekin ular bu janjalli ishga aralashishdan, obro'lariga putur yetib, shaxsiy ishlariga zarar kelishidan qo'rqadilar va o'zlarini chetga oladilar. Oqibatda sud uni o'lim jazosiga hukm qiladi. Klayd burjua tartiblari, din va o'sha jamiyat illatlari, urf-odatlari qurboni bo'ladi.

Drayzer ushbu asar orqali Amerikadagi fojiaiylikni ko'rsatib bera oladi. "Amerika fojiasi" voqelikni keng qamrab olishi, ko'rsatilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng sara asarlari qatoridan joy oldi.

Drayzerning "Amerika fojiasi" (1925) asari birinchi jahon urushidan so'ng yozilgan monumental ikki tomli romandir.

"Amerika fojiasi"-ushbu asar Teodor Drayzerni eng mashhurlik cho'qqisiga chiqargan asari desak adashmaymiz. Ushbu asar va uning qahramonlarining juda samimiy qilib talqin qilinganligi uning dunyo darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'la oladi. Amerikalik naturalist yozuvchi Teodor

---

<sup>1</sup> Артаманов С.Д. "История зарубежной литературы XVII-XIX в.в". Москва, 1978 стр. 99.

<sup>2</sup> Zasurskiy Ya.N. "Teodor Drayzer". Moskva, 1977. p. 88.

Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida bu mamlakat hayotining manzaralari chiziladi. Amerikaga xos tipik hodisa sifatida analiz qilinadi. Buzuq ijtimoiy tuzum sharoitida yoshlarning yaxshi yashashni orzu qilib, pul ketidan quvib, elektr kursiga o'tirishlariga majbur bo'lishlari haqqoniy bo'yoqlarda aks ettirilgan. Ushbu asar 1925-yilda yozilgan bo'lib, asarning bosh personaji burjua meshchan oilasidan chiqqan bola-Klayd Griffitsdir. Roman voqealari Qo'shma Shtatlarda yuz berganligi aks ettirilgan. Klayd o'sha muhit ta'sirida o'sadi. Klayd burjua jamiyatiga xos yuzsizlik, boyish yo'lida har qanday vositalardan foydalanish kabi yaramas illatlarni o'zlashtira boshlaydi. U o'z maqsadlariga erishish yo'lida dastlabki qadam, deb mahalliy mehmonxonani hisoblaydi va u yerda o'z mijozlaridan xayr-sadaqalarga ko'z tikuvchi, manfaat yuzasidan ish tutuvchi egoistga aylanadi. Tartibsiz turmush kechirish maishat va ichkilikka olib boradi. Romanda Klayd Griffitsda tug'ilgan egoism Amerika burjua jamiyati va uning zo'ravonlikka asoslangan vahshiy qonun-qoidalarining oqibati ekani ko'rsatildi. Ushbu asarda insonlarning hayotda o'z yo'lini topa olishi va kelajakda ham farzandlarning hayot yo'lini topishga yordam beradigan qaysidir ma'noda insonlarni o'z ma'suliyatini his qilishga undaydigan tarbiyaviy ahamiyatli tomonlar juda ko'p. Buni albatta Klaydning amakisi va uquvsiz otasi misolida ko'rishimiz mumkin. Bu asarda biz Klaydni aybdor deb topishimiz noo'rin albatta chunki u ham yaxshi yashash uchun harakat qilgan. Burjua dunyosining ahloqi, boylikka sig'inish kishining tabiiy his tiyg'ularini barbod etadi, bu narsa oddiy amerikalik yigit Klayd shaxsiyatida ochiq ko'rinadi. Asar qahramoni Klayd Griffits-zaif irodaliligi va o'z xatti-harakatlarini oxirigacha tushunib yetmagan yigitcha. U qashshoq sayyoh yevangepistlar oilasida voyaga yetadi, biroq boylik va go'zal ayollar muhabbatiga erishishni orzu qiladi. Boy amakisi uni o'z fabrikasiga ishga oladi. U ko'ngil qo'ygan qiz Roberta Olden homilador bo'lib qolganida, Klaydni uylanishga undaydi. Shu orada Klayd zodagon oila qizi Sondra Finchlini sevib qoladi. Yangi muhabbati ya'ni mahbubasi uning nazarida orzu etgan muvaffaqiyat, pul va ijtimoiy maqomni mujassamlashtiradi. Klayd oldingi sevgilisi Robertani qayiq sayriga taklif etib, uni rejasi bo'yicha cho'ktirib o'ldirmoqchi bo'ladi.

Ammo so'nggi lahzalarda bu shum niyatidan qayta boshlaydi. Biroq qiz to'satdan qayiqdan suvga tushib ketadi. Suzishga mohir Klayd qizni qutqara olmaydi va qiz o'sha sohilda cho'kadi. Sud mahkamasida tik turgan Klaydning qissasini Teodor Drayzer aks yo'lda ya'ni yo'nalishda qaytarib, ayblov va himoya advokatlarning savol-javoblaridan yigit hayoti va ongiga singib o'tishi uchun o'ta mohirlikdan foydalanadi.<sup>1</sup>

Ijodkor hayotdan saralab olgan muhim voqea va hodisalarni o'zining estetik qarashlarida aks ettira olgan odobli, o'ta diniy muhitdagi oilada tarbiya topgan Klayd qay tariqa odam o'ldirishga jur'at etigani, qanchalik tuban tushganini tahlil etadi. Klayd o'zi kambag'allikdan boylik va shuhrat cho'qqilarida meteordek ko'tarilganida o'z tajribasida sinab ko'rmoqchi bo'lgan Amerika orzusini astarini tasvirlaydi. Kambag'al ammo betinim mehnat qiluvchi, ishchi bo'lgan Klayd taqdirida halok bo'lish bitilgan edi. Darhaqiqat, u kiborlar oilasiga kirib, uni zodagon qiz Sondra Finchli mashhur qiladi, biroq Klayd o'zi sevgan ayol faqat uning puli va shon-shuhratiga uchishini idrok etadi. Mahubasining sevishga qodir emasligi dil xastaligi, umuman inson tabiatiga ishonch yo'qotishiga olib keladi. Shuningdek sinfiy sovuqlikdan ham azob chekadi: ishchilar sinfidan yuqoriga ko'tarilgan Klayd, o'zi erishish uchun o'ta ko'p mehnat qilgan boylar sinfining moddiy qadriyatlarini rad etadi. U elektr kursiga o'tirib o'zini kamchiligi tufayli halok bo'ladi.

O'z paytining ko'plab yetuk romanlari singari "Amerika fojiasi" ham omadsizlik qissasi. Katta boylik orasida umidsizlikni kashf etishi bilan keyinchalik Teodor Drayzer uchun keng yo'l ochadi. O'zining qiyin uslubiga qaramasdan Drayzer "Amerika fojiasi" da shak-shubhasiz qudratini namoyon etadi. Aniq tafsilotlar muqarrarligining mudhish qissasini tug'diradi. Bu roman Amerikacha muvaffaqiyat afsonasi aynishining shavqatsiz ta'siri bo'lishi bilan birga urbanizatsiya, modernizatsiya va yakkalanishning salbiy ko'rinishlarini fosh etuvchi umumlashma qissadir. Unda yo'qsillar romantik va xavfli fantaziyalar og'ushida sargardondir.

---

<sup>1</sup> Theodor Dreiser "An American Tragedy". Moscow, 1951.

Amerika tahliliy jurnalistikasining ulkan an'anasi aynan shu davrdan boshlanib "Maklures" va "Kollier" kabi jurnallari Ida I. Tarbelning "Standart Oyl kompaniyasining tarixi" (1904), Linkoln Steffensning "Shahar sharmandaligi" (1904) va o'zga keskin tanqidiy oshkora fosh etuvchi asarlarini nashr etadilar.

Fosh etuvchi romanlar og'ir mehnat sharoitlari va jabr-zulmni tasvirlash uchun ko'zga tashlanuvchi jurnalistik vositalardan foydalanadi. Populist Frenk Norrisning "Sprut" (1901) asari katta temir yo'l kompaniyalarini tasvirlasa, sotsialist Epton Sinklarning "Jungli" (1906) asari Chikagoning qassobxonalaridagi iflosliklarni fosh etadi. Jek Londonning "Temir Tovon" (1908) asari sinfiy kurash hukumatining ustun kelishini bashorat etishda Jorj Oruelning "1984" asariga yo'l ochib bergan. O'zga bir badiiy xususiyat-oddiy xarakterlar va ularning realistik portret galleriyasidir.<sup>1</sup> Unda qishloq fermerlarining xo'jaligi talab etayotgan O'rta G'arb fermerlarining qashshoqligi karaxt etuvchi darajada tasvirlangan. Asarning nomida g'arb tomon siljigan ko'plab aravalar ketidan ergashgan yer ochuvchi fotihlar muqim bo'lgan qishloqlardagi chang, serqatnov ko'chalar manzarasini chizadi. Ushbu asarlar ham "Amerika fojiasi" kabi kichik shaharchalardagi kambag'allik, yakkalik va umidsizlikni o'z holicha tasvirlab beradi.

"Amerika fojiasi" Amerikaning raqobatini, muvaffaqiyatga intiluvchi jamiyatida ko'plab kambag'al va ishchilarni qamrab oluvchi qoniqmaslik, hasad va umidsizlik tuyg'ularining in'ikosidir. Amerikaning sanoat qudrati ortishi sayin gazetalar va fotografiyalarda aks etgan boylarning hashamatli hayoti, oddiy fermerlar va ishchilarning va ularning ko'rimsiz turmushidan keskin farq qiladi. Ommaviy axborot vositalari ortib boruvchi orzu-havaslar va asossiz umidlar alangasini avj oldiradi. Zamonaviy davlatlar uchun umumiy bo'lgan mazkur muammolar fosh etuvchi, ijtimoiy muammolarni hujjatlashtiruvchi sinchkov qidiruv reportajlar jurnalistikasini yuzaga keltirib, ijtimoiy hodisalarni ya'ni islohotlarga turtki beradi. Ijodkor hayotdan saralab olgan muhim voqea va hodisalarni o'zining estetik qarashlarida aks ettiradi. Asar o'z yechimi bilan va

---

<sup>1</sup> Azimov Q., Qayumov O. "Chet el adabiyoti tarixi". Toshkent: "O'qituvchi", 1987. 61-bet.

shakllanishi jihatidan romantizm bilan yonma-yon turgan holda haqqoniyligi va hayot haqiqati bilan undan ajralib turadi. Asarning yetakchi prinsiplari: hayotning muhim tomonlarini muallifning yuksak ideallari darajasida ob'yektiv aks ettirib, tipik xarakterlarni ularning individual xususiyatlari bilan ifodalanib asarda badiiy fantaziyaning shartli shakllaridan foydalanib, shu bilan birga tasvirining hayotiy haqqoniyligiga rioya qilinib, shaxs va jamiyat ularning aloqadorligi va ziddiyatlari; muammolariga qiziqishning kuchli ifodalanishidir.

Teodor Drayzer Klayd tabiati timsolida ijtimoiy tanqid va realizm ruhini ilhomlantirgan. Bunda namunali demokratik shaxslarni va Klayd misolidagi jamiyatda ezilgan insonlar taqdiri, shuningdek yomonlik bilan yaxshilik orasidagi farq aniq ifodalangan. Bu asarda muvaffaqiyat ostida yechimi yo'q psixologik muammolar gazak olgan. Bu muammolarning asosini shahsiy hayot ya'ni Klayd psixologiyasiga nisbattan zug'umkor munosabatlarning ta'siri ochib berilgan. O'sha Klaydni oddiy ishchi bo'lib yurganligi va u o'zini bo'lim boshlig'i bo'lib tayinlangandan, keyin uni dabdabali va shartli urf-odatlar iskanjasida qolganligi bularning barisi inson tabiatiga ta'siri bo'lishi ochi berilgan. Balki bunda uning shuhratparastlikka intilishini namoyon etish emas, balki inson tabiati psixologiyasini o'zligini ifodalashi kerakligiga ishonch hosil qildirishdir. Klayd tabiati nafrat qilgudek emas, uning psixologiyasida ruhan ezilish, faqat xudbinlik emas balki qaysidir ma'noda intiluvchanlik ham bor deya olamiz. Uning bir jinoyati bilan uning tabiati nafratga loyiq emas. Undan tashqari o'sha davrda shunday xunrezliklar qilib jamiyat orasida baobro' bo'lgan insonlar yo'q bo'lgan deya olmaymiz.<sup>1</sup>

Klaydning qalb go'shalarida shunday bir hissiyotlari borki, harqalay u hamma o'ylayotgandek u qadar gunohkor emas axir. Surishtirib kelganda, ularning birortasi ham Klayd Robertadan ko'rgandek azobni ko'rmagan, ularga hech kim xiralik qilib "menga uylanasan", deb turib olmagan va shunday yo'l bilan hayotini zaharlamagan. Ularni Klayddek Sondraga nisbattan, afsonaviy orzular timsoliga

---

<sup>1</sup> Меньшова И. "Американская литература XX века". К., "Красный луч", 2000. 98-bet.

aylantirmagan. Ular g'arib bolaning badbaxt kulfatlari va xorliklaridan begonadirlar, butun qalbing, butun vujuding bilan boshqacha, tuzukroq hayotga intilib, nomusdan yerga kiray deb ko'chada va'z aytib duogo'ylik qilmaganlar. Bu odamlarning qaysi biri va shu jumladan, onasi ham, u boshidan kechirgan ma'naviy, jismoniy va ruhiy azoblarni bilmay turib, qanday qilib uni ayblashga hadlari sig'adi? Hatto hozir ham o'sha xayoliy kechinmalarni xayolan eslasa: "Butun a'zoyi-badani g'o'yo o'tga tushgandek qovrilib ketadi. Garchi bor dalillar unga qarshi shunaqangi qat'iy norozilik bildirar ediki, hatto bunga o'zi ham hayron bo'lib ketar edi, ba'zan."<sup>1</sup> Haqiqiy hayotga ro'baro' turish muhimligi yetakchi mavzuga aylangan edi bu asarda.

T. Drayzerning "Amerika fojiasi" tomon qo'yilgan qadam qiyin izlanishlardan tashkil topgan. Bunga "Kulol qo'li" (1918) guvoh bo'la oladi. Drayzer uchun har tomonlama nooddiy asar qahramoni-Amerika burjua dunyosi tomonidan kaltaklangan inson asarda sotsiologik muammolarni ilgari surgandir. Insonni tragedik taqdirida bo'lgan ijtimoiy tabiati ochib berilgan bo'lsada, "Kulol qo'li", "Amerika fojiasi" uchun o'ziga xos eskiz bo'la olgan. "Amerika fojiasi" ni yozish fikri Drayzerning balki ish faoliyatini boshidanoq yuzaga kelgandir, ayniqsa "Sister Carry" chop etilgandan so'ng. Drayzer o'shanda "Povessa" romanining syujeti ayrim jihatlari bilan "Amerika fojiasi" ga o'xshab ketishini aytgandi.

"Amerika fojiasi" ning asl ma'nosi-insonning xatarli holatlarda bo'lganligini ko'rsatishdadir. "Amerika fojiasi" ning qahramoni Klayd Griffits o'z tengdoshlari orasida hech narsa bilan ajralib turmaydigan inson. U shu jihatlari bilan ham Drayzerning boshqa qahramonlaridan ajralib turadi. U oddiy va har kunlik oddiy insonning g'ayritabiiy taqdiri haqida so'zlab turadi va Drayzer bu asarning oddiylikini ko'rsatib turadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, Klayd bu elektr kursidan qochib keta olardi. Uni qatl qilmasliklari ham mumkin edi. U o'z jinoyati izlarini yashira olmadi, bunga ayrim sabablar xalaqit berdi, ammo shu sabablar ham bo'lmasligi

---

<sup>1</sup> Teodor Drayzer "Amerika fojiasi" 2-qism. O'zbek tili tarjimasini, Toshkent, "G'afur G'ulom" nashriyoti 1976.377-bet.

mumkin edi. Bundan tashqari u saylov oldi kompaniyasining qurboniga aylandi. Klayd Griffits qotillik sodir qilmasdan turib qotil jinoyatchiga aylandi. Uni jamiyat qotilga aylantirdi, o'zining boyib ketish fikri bilan boy qizlarga ilakishkanligi uning eng katta xatosi edi. Uning fojiasi nafaqat elektr stulda vafot etganligi, balki Amerika burjuaziyasi tomonidan zaharlanib ado qilinganligidadir. "Amerika fojiasi" da Teodor Drayzer g'oyaviy va badiiy to'liqlikka erisha olgan.

Teodor Drayzerning ushbu asari ya'ni "Amerika fojiasi" haddan ziyod shuhratparastlikka hamda materializmga qarshi bong uradi. Ushbu asarning asosiy mavzui-Drayzerning o'z e'tiqodi va tushunchasiga ko'ra inson o'zligi va dunyo orasidagi mavjud yoki mavjud bo'lishi kerak bo'lgan uzviylikdir. Shu orqali zamonaviy dunyoning zulmiga qarshi shaxsiy noroziligini ifodalaydi. Roberta timsolida esa shimoli g'arbning ichkarisidagi ishchi xalqning umidlari, qo'rquvlari va rejalarining barbod bo'lishini moxirona ifodalagan. Adib Teodor Drayzer salmoqli xulosalar chiqarish uchun kitobxon diqqatini o'tkinchi, birinchi ko'rinishdan ahamiyatsiz tafsilotlarga jalb etmasdan, balki u, insonlarning o'zaro munosabatlarini yoritib, hayot ikir-chikirlari va omadsizlik, qoniqishning kamyob lahzalarini ifodalagan. U bu asarini Amerika tarixidan ilhomlanib, qolaversa o'z hayotiga tanqidiy yondashib yozgan. Hamda Drayzer Klaydni avtobiografik obrazda ifodalab, uni betinim mastlik ya'ni shuhratparastlik qusurida aks ettirgan. Klaydni jinoyatga qo'l urgandan so'ng o'zining ham ruhiy azob chekkanligi va o'ldirish kabi tishga olib bo'lmaydigan mavzuni diqqat markaziga keltirgan. O'sha Klayd Roberta bilan birga bo'lishga jazm etgan. U faqatgina qilayotgan ishining yakunini o'ylamagan. Roberta misolida esa, ko'pinchalik ularda homiladorlik, ayol badani yoki turmush qurish masalalari ayol nuqtai nazaridan jasur qilib taqdim etila olingan. Roberta osuda hayoti va Klayd bilan tanishib, doim u bilan baxtli bo'lishni orzu qilgan edi. Klaydning so'zlariga ishonib ishdan vaqtinchalik bo'shab, o'z ona qishlog'iga boradi. Va u yerda Klaydni kutib yashaydi. Uning xatlariga javob kelmay qo'yadi va u o'ziga-o'zi azob berib, kasal bo'lib qoladi. U hattoki uzoqlarga ketib, ijaraga xona olib bo'lsada farzandini bag'riga bosib yotishni orzu qiladi. Kasal holatida juda yakkalangan va umidsizlangan bechora

sezadi o'zini. Shu niyatda o'zi qiyin ahvolda bo'lsada kiyimlar tikadi. Aslida u Klayd haqida umuman boshqa fikrda edi, uning nazdida Klayd shuhratparastlikka intiladigan emas, balki aksincha yaqinda u uni eri bo'ladi va o'z farzandining otasi bo'ladi deb orzu qiladi. So'ng esa uning o'y xayollari puchga chiqa boshlaydi. Yana u Kanzas Sitiga qaytadi, Klaydga tazyiq o'tkazishga majbur bo'ladi, lekin ushbu tazyiqlari uning umriga xotima yasashini bilmaydi.<sup>1</sup>

Klayd esa bu vaqtda o'zining yangi kashf etilgan dunyosiga g'arq bo'lgan edi-yu, ammo shunday bo'lsa ham Robertadan qutilish rejalari doim unga tinchlik bermas edi. U o'zini o'ta balandparvoz, dabdabali va shartli urf-odatlar iskanjasida qolganini his etar edi. U bu narsalardan ham zavqlanar, ham qo'rqrar edi. Klayd o'z oilasi a'zolarining "nafosati" va zaifligi izxorini bila turib, har doimgidek oila a'zolarini ulg'lashga qaratilgan uslubini qo'llardi. Ko'pinchalik u bu an'anasini shunday qo'llaydiki, a'lo darajada niqoblanadiki, bu narsa boshqalarga ortdagi bir kuy kabi yangraydi. U ular orasida shunday obro'li ediki toki bu yaqin o'tmishda, hatto u o'zligini muxtor asdodlari davrasidan tashqarida topadi.

Ushbu "Amerika fojiasi" ni o'zining o'tkinchi orzu-havaslarida yashovchilarni, ularni ro'yobga chiqishini kutuvchilar fojiasini qayta-qayta tasvirlovchi asar deb olsa maqsadga muvofiqdir. Har bir roman o'z muhitini aks ettirib, unga qaytaradi va shu bilan birga umuminsoniy qiziqishga molik qissani yoyib boradi. Drayzerning ushbu asari mavzusi ham g'arb an'anasini bayon etuvchi asardir. Bunda Roberta go'yoki bir tuban nayrang qurboniga aylangandir. Bu asar oila hamjamiyat, o'lka, tarix va o'tmish, shuhratparastlik va muhabbat tuyg'ulari mavzuidadir. Bu ishchi qizning fojaviy sevgi aloqasini bayon etuvchi asardir. Ushbu asar o'z avlodining taqdir jozibasini tasvirlovchi, boshqalardan farqli o'laroq jamiyatdagi boylar va kambag'allar haqida oshkora ta'rifdir. Klayd har qanday muvaffaqiyat va shon-shuhrat sinovlariga dosh berishga qodir emas edi. Asar juda nuqsonsiz yozilgan va batafsil tarkibli bu qissa o'z taqdirini o'zi yaratgan inson haqidagi asar bo'lib, Amerika orzusini ifodalaydi. Bosh qahramonlardan biri Klayd Griffits muvaffaqiyatining shaxsiy hayot va

---

<sup>1</sup> Батулин С. "Портреты американских писателей" М.,1979. 79-бет.

muvaffaqiyatli muhabbatga vayronkor ta'sirini kashf etadi. Robertaga yaqinlashish oqibatida hayoti vayron bo'lgan yosh yigit taqdiri tasvirlanadi. Drayzer asarida ko'pinchalik hayotiy tajribaning ichki tuyg'u, ehtiros ifodasini qidirgan insonni o'ziga jalb etadi.

Romanda insoniyat taqdirida ko'riluvchi gunoh va azob uqubatlarning o'zaro aloqadorligi ko'rsatilgan. Shuningdek, o'z taqdirini o'zi yaratuvchi inson mavzui bo'rttirib ko'rsatilgan; Klayd farovon turmush kechirish uchun boy qarindoshlarining panoh berishi emas, balki har bir demokrat amerikalik kabi betinim mehnatga tayanib, o'qish lozimligini anglaydi. Roman falsafiy bo'lishiga qaramasdan, shu bilan birga fojiviy asar hamdir. O'zi qahramonligiga qaramasdan Klayd asar nihoyasida o'limga ehtimol la'natga mahkum etiladi. Tabiat naqadar go'zal bo'lishidan qat'iy nazar, u uchun yot va shavqatsiz bo'lib qoladi. Inson ruhining fojiviy burilishi sodda tabiat og'ushida sodir bo'ladi. Roberta o'z taqdirini shaxs sifatida tan oladi va borliqning shafqat, tashqi kuchlariga qarshi chiqishga jur'at etadi. Roberta hayoti qayiqning fojiviy ravishda vayron bo'lishidan kelib chiqib yakun topadi. Teodor Drayzer ijodining eng ajoyib tomonlaridan biri asarlaridagi oilalarga faollik yetishmasligini yorita olganligidir. Ushbu asarda ham nafaol oilalar hamda yakkalangan shaxsning azob uqubatlarini qayta-qayta tasvirlaydi.

Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romani orqali biz o'tgan asrning boshlarida Amerika hayotining realistik manzaralari bilan tanishamiz. Roman Klayd Griffitsning jinoyati Amerikaga xos tipik jarayon hodisa sifatida aks ettiradi va bunday jinoyatlarning ildizlari ro'y-rost ochib berilgan.<sup>1</sup>

Bu kitobning shakli diqqatga sazovordir. XX asr Amerikasida shaxs xulq-atvoriga yangicha, erkinlashtiruvchi demokratik tajribaning, alalxusus jinsiy va diniy ozodlik ta'siri masalalarini ko'taradi. Bu roman o'ziga xavola etish va in'ikosga moyilligi tufayli zamonaviydir. Muallif har bir narsaga ulkan tasnif

---

<sup>1</sup> Teodor Drayzer "Amerika fojiasi" 2-qism. Toshkent, "G'afur G'ulom" nashriyoti 1976.

bergan. Roman shuni namoyon etadiki, adolat bu kitobda tugallanmagan matn bo'lib, ehtimol unda o'lishdan o'zga pinhoniylar javoblar yo'q.

Klayd va Robertaning qisqa va fojiali hayotlari xavf-xatarga to'la edi. Ushbu asar hayot bo'la turib o'limga berilishning dahshatli manzaralari bilan tugallanadi.

2.3. T.Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida ekspressivlikni ifodalash maqsadida takrorlardan foydalanishdagi mahorati.

Teodor Drayzerning 1925-yili yaratgan “Amerika fojiasi” romani Jek Londonning “Martin Iden” asari singari Amerika orzusining xavf-xatarlarini kashf etadi. Asar qahramoni Klayd Griffit-zaif irodali va o’z xatti-harakatlarini oxirigacha tushunib yetmagan yigitcha. U qashshoq sayyoh yevangelistlar oilasida voyaga yetadi, biroq boylik va go’zal ayollar muhabbatiga erishishni orzu qiladi. Boy tog’asi uni o’z fabrikasiga ishga oladi. U ko’ngil qo’ygan qiz Roberta homilador bo’lib qolganida, Klaydni unga uylanishga undaydi. Shu orada Klayd zodagon oila qizini sevib qoladi. Yangi mahubasi uning nazarida orzu etgan muvaffaqiyat, pul va ijtimoiy maqomni mujassamlashtiradi. Klaydning oldingi sevgilisi Robertani qayiq saylida cho’ktirishni batafsil rejalashtiradi, ammo so’nggi lahzada bu shum niyatidan qayta boshlaydi. Biroq qiz to’satdan qayiqdan suvga yiqiladi. Suzishga mohir Klayd qizni qutqarmaydi va u cho’kadi. Sud mahkamasida tik turgan Klaydning qissasini Drayzer aks yo’nalishda qaytarib, ayblov va himoya advokatlarining savol-javoblaridan yigit hayoti va ongiga singib o’tish uchun mohirona foydalanadi. Odobli, o’ta diniy muhitda, yaxshi oilada tarbiya topgan Klayd qay tariqa odam o’ldirishga jur’at etishgacha tuban tushgani tahlil etiladi.

O’zining qiyin uslubiga qaramay, Drayzer “Amerika fojiasi” da shak – shubhasiz qudratini namoyon etadi. Aniq tafsilotlar fojia muqarrarligining mudhish hissini tug’diradi. Bu roman Amerikacha muvaffaqiyat afsonasi aynishining shavqatsiz tasviri bo’lishi bilan birga urbanizatsiya, modernizatsiya va yakkalanishning salbiy ko’rinishlarini fosh etuvchi umumlashma qissasidir. Unda yo’qsillar romantik va xavfli fantaziyalar og’ushida sargardondir.

“Amerika fojiasi” Amerikaning raqobatli, muvaffaqiyatga intiluvchi jamiyatida ko’plab kambag’al va ishchilarni qamrab oluvchi qoniqmaslik, hasad va umidsizlik tuyg’ularining in’ikosidir.

“Amerika fojiasi” allaqachon jahon durdona asarlari orasida o’zining munosib o’rnini egallagan va ko’plab olimlar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va talabalar tomonidan asarga turlicha yondashgan holda o’rganilgan va tadqiq etilgan. Biroq biz yana bir bor millionlab kitobxonlarning sevimli asari bo’lgan “Amerika fojiasi” romaniga murojaat qilib, bu ijod namunasida ayol siymosini yaratishda takrorlardan ekspressivlikni ifodalashdagi mahoratiga diqqatimizni qaratdik va romandagi quyidagi ayol obrazlarini tahlil qilib, ularni o’rganib chiqdik. Bularga Klaydning onasi Griffiths xonim, Klaydning opasi Esta, Klaydning amakisining rafiqasi Elizabet Griffiths xonim, Roberta Olden, Sondra Finchli, Gortenziya Brigs, Mayra va Bella Griffithslar va asardagi boshqa epizotik ayol obrazlar misol bo’la oladi.

“Amerika fojiasi”da kitobxon diqqatini o’zining kuchli va qat’iyatligi bilan tortgan birinchi ayol siymosi Klaydning onasi Griffiths xonimdir va u asarning ilk sahifalarida quyidagicha tasvirlangan:

“Of the group the mother alone stood out as having that force and determination, which however blind or erroneous, makes for self-preservation, if not success in life. Of the group the mother alone, she, more than any of the others, stood up with an ignorant, yet somehow respectable air of conviction.” (page 2)

“Guruhdagilar orasida faqat onagina kuch va qat’iyat sohibasi ekanligi bilan ajralib turardi. Bu kuch va qat’iyat o’ziga yo’l topa olmay behuda ketar, onaning ishini yurishtirma ham, har qalay, unga dalda berib turardi. Onada boshqalarga qaraganda, garchi yorqin bo’lmasada, har holda hurmatga molik ishonch ko’proq ekanligi sezilardi.” (5-bet)

Yuqoridagi misolda Griffiths xonimning oila tayanchi va kuchi hamda qat’iyati ekanligini avtor takrorning anafora turi orqali ko’rsatib bersa, quyidagi parchada esa:

“If you had watched her, her hymn book dropped to her side, her glance directed straight before her into space, you would have said:

“Well, here is one who, whatever her defects, probably does what she believes as nearly as possible”. All kind of hard, fighting faith in the wisdom and mercy of that definite overruling and watchful power which she proclaimed, was written in her every feature and gesture:

The love of Jesus saves me whole,  
The love of God my steps control.” (page 2)

Uning haqiqiy taqvodor ekanligi, xudoga kuchli muhabbati muallif tomonidan takror badiiy san’atining anafora turini qo’llashi bilan mohirona tarzda tasvirlangan. Quyidagi parchada esa Klaydning onasiga nisbatan:

“He could not get it all straight, but still he could not help respecting his mother, a woman whose force and earnestness, as well as her sweetness, appealed to him. Despite much mission work and family cares she managed to be fairly cheerful, or at least sustaining, often declaring the most emphatically “God will provide” or “God will show the way” especially in times of too great stress about food and clothes.” (page 3)

- kuchli hurmati, Griffiths xonimning mehribonligi singari ichki matonati va jiddiyligini, og’ir ishi va oiladagi tashvishi og’irligiga qaramay, quvnoqligi va tetikligini yo’qotmaydigan irodali inson ekanligini ko’rishimiz mumkin va xonimning yuqorida sanab o’tilgan xususiyatlarini yoritishda adib yana bir takrorning anafora turidan ustalik bilan foydalangan.

Elvira Griffiths xonim Eysa ya’ni Klaydning otasiga turmushga chiqmasdan ilgari anchayin chalasavod qiz bo’lib, diniy masalalar xayoliga kam kelardi, ammo Eysa bilan oila qurgach evangelizm va prozelitivizm kasali yuqib, u taqvodor ayolga aylanadi:

“Before she had married Asa had been nothing but an ignorant farm girl, brought up without much thought of religion of any kind. But having fallen in love him, she had become inoculated with the virus of Evangelism and proselytizing which dominated him and followed him gladly and enthusiastically in all his ventures and through all of his vigaries.”

Yuqoridagi parchada ham muallif takror stilistik usulini qo'llash orqali Elvira Griffiths xonimning tabiatini ochib berishga erishgan.

Qizi Estaning uyni tark etib, begona erkak bilan qochib ketishi Oilaga katta zarba bo'ladi, eri butunlay o'zini yo'qotib qo'yib, bolalar bu holatdan hayratda bo'lgan bir paytda Elvira Griffiths xonim o'zini og'ir sinov chog'i ham boshqacha hayotiyroq tutar edi:

“Always the more impressive, Mrs Griffiths now shoved herself markedly different and more vital in this trying situation, a kind of irritation or dissatisfaction with life itself, along with an obvious physical distress, seeming to pass through her like a visible shadow ... Her manner was that of one who is intensely disquieted and dissatisfied one who fingers savagely at a material knot and yet cannot undo it, one who seeks restraint and freedom from complaint and yet who would complain bitterly, angrily.”

Mazkur holatni ya'ni og'ir sinov davrida Elvira xonimning o'zini qanday tutishi, ona sifatida farzandining qilmishidan juda iztirob chekishini T. Drayzer “vital” va “life” ya'ni “hayot” sinonim so'zlarini takrorlash, hamda “complain” and “complaint” o'zakli takror turini qo'llab, juda chuqur bo'yoqdorlikka ya'ni ekspressivlikka erishgan.

Shunday qilib, Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi ” dan ilk ayol timsoli o'ta irodali, matonatli, mehribon va taqvodor ekanligi takror stilistik figurasi yordamida kitobxon tasavvurida yanada yorqinroq va yanada emotsionalroq gavdalangan. Bu ayol siymosining yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarini namoyon qilishda, muallif takror stilistik usulining anafora, o'zakli takror va sinonimik takror turlaridan unumli foydalangan.

Asardagi keyingi ayol qahramon bu Klaydning opasi Esta bo'lib, unga kamroq o'xshasa ham, mahalliy teatrga gastrolga kelib, boshini aylantirgan bir aktyor bilan g'oyib bo'lgan edi. Bu holat oilaga katta zarba bo'lgan edi. muallif Estani kitobxonga quyidagicha tanishtiradi:

“The truth in regard to Esta was that in spite of her guarded-up bringing, and the seeming religious and moral fervor which at times appeared to

characterize her. The truth in regard she was just a sensuous, weak girl who did not by any means know yet what she thought.”

Yuqoridagi misolda T.Drayzer yana bir bor takror stilistik usulining anafora turini qo'llab, Estaning garchi axloq tomondan jiddiy tarbiya ko'rgan bo'lishiga qaramay, goho ko'ziga dindan boshqa narsa ko'rinmasa ham, ko'ngliga nima xush kelishini hanuzgacha bilmaydigan ko'ngilchan va bo'sh bayov qiz ekanligini ochib bergan va bu bilan takrorning ekspressivlik mohiyatini yanada chuqurroq aks ettirgan.

Estaning ichki olamini, o'y-fikrlari va dunyoqarashlarini tasvirlagan sari adib qayta va qayta takror stilistik figurasiga murojaat qilganini biz quyida keltirilgan misollardan bilib olishimiz mumkin:

“And in herself, as from time to time she observed lovers or flirtation – seekers who lingered at street corners or about doorways, and who looked at her in a longing and seeking way, there was a string, a nerve plasm palpitation that spoke loudly for all seemingly material things of life, not for the thin pleasantries of heaven.”

Ushbu misolda takrorning o'zakli takror turi ishlatilib, flirtation-seeker va seeking hamda doorways va way so'zlarida o'z ifodasini topgan. Bu so'zlarning o'zakli takrori natijasida Estaning sarguzashttalab biron kimsaning unga ko'chalar muyulishida ehtirosli, sinovchan nigohini sezguday bo'lib, o'zi ham pitirchilab yuragi orziqib ketishini, hamda qizdagi bu hol uning narigi dunyoning nasiya lazzati sari emas, balki hayotning aniq va ravshan quvonchlari tomon sudrashi tasvirlanib, bu Estaning yengiltak tabiatiga kitobxonga bir ishora uchun qo'llanilgan.

Muallifning Estani kitobxon ko'z o'ngida shu tarzda gavdalantirish natijasida Esta oxir-oqibat hayotda qoqilishi aldanib qolib, homilador bo'lib qolish voqealari o'quvchini sira ham ajablantirmaydi, chunki u o'zi shunday musibatlar boshiga tushishida aybdordir. Bunga uning yengiltakligi va bo'sh –bayovligi sababdir. Quyidagi parchada esa biz Estaning o'z aybiga iqror bo'lishini ko'rishimiz mumkin:

“Poor Mamma. You mustn’t think strange of her, Clyde. She doesn’t know what to do, you see, really, it’s all my fault, of course. If I hadn’t run away, I wouldn’t have caused her all this trouble. She has so little to do with and she always had such a hard time.” She turned her back to him suddenly and her shoulders began to tremble and her sides to heave. She put her hands to her face and bent her head low and then he knew that she was silently crying.” (60 page )

Yuqoridagi parchada muallif anafordan foydalanib, Estaning ayanchli ahvolini va bechora Griffiths xonimning qizi uchun qanchalik qiynalganligi hamda bu vaziyatning emotsional tomonini tasvirlaganligini biz Estaning unsiz yig’laganidan sezishimiz mumkin.

Klaydning opasi Estani topib, uni ham ma’nan ham jismonan qiynalganini ko’rish, ustiga ustak nikohsiz farzand kutishi Klaydni bir oz dovdiratib qo’yadi:

“She shook her head negatively and sobbed the the more. And in that instant there came to Clyde the real psychological as well as sociological and biological import of his sister’s condition. She was in trouble, pregnant-and with no money and no husband. That was why his mother had been looking for a room. That was why she had tried to borrow a hundred dollars from him. She was ashamed of Esta and her condition. She was ashamed of not only what people outside the family woud think, but what he and Julia and Frank might think – the effect of Esta’s condition upon them perhaps- because it was no right, unmoral, as people saw it. And for that reason she had been trying to conceal it, telling stories about it - a most amazing and difficult thing for her, no doubt. And yet, because of poor luck, she hadn’t it succeeded very well.”

Yuqoridagi parchada Estaning holati va bu holatning o’ta axloqsizligi va noto’g’riligini hamda Griffiths xonimning bu vaziyatni qo’lidan kelgancha yashirishini kitobxon ongiga chuqurroq yetkazish maqsadida muallif yana bir bor takrorning anafora va epifora turlariga murojaat qilib, yuksak darajadagi ekspressivlikka erishgan.

“Amerika fojiasi” romanidagi turfa ayol obrazlar ichida yana biri bu Klaydning ilk ma’shuqasi Gortenziya Brigmdir. U ham Klayddek mehmonxonaga ishga kirmasdan oldin gazlamalar sotiladigan do’konda sotuvchi bo’lib ishlar edi: “And in consequence, arrested by this, they determined to show how really interesting they were -vamp him – no less. And he found their crude briskness and effrontery very appealing – so much so that he was soon taken by the charms of one, a certain Hortense Briggs, who, like Louise, was nothing more than a crude shop girl in one of the large stores, but pretty and dark and self-appreciative.”

Ushbu asardan olingan parchada biz adibning “and” bog’lovchisini mahorat bilan takrorlaganining boisi, Gortenziya kitobxonga tanishtirib, uning tashqi ko’rinishi tasvirlashdan iborat. “And” bog’lovchisining besh marotaba takrorlanib kelishiga qaramay, stilistik jihatdan bu takror badiiy san’ati emas, balki takrorga asoslangan polisindeton (polysyndeton) stilistik figurasidir.

Gortenziya va uning dugonalarining o’ta yengiltak, xushchaqchaq va yigitlar bilan o’ta erkin muomalasini tasvirlashda ham muallif yuqorida tilga olingan “and” bog’lovchisini takrorlash orqali jalb qiladi:

“And the general hilarity for this reason being not a little added to, they fell into more intimate relations spooning with one and Louise and Greta included... And it appeared to be nothing out of the ordinary, as Clyde saw, for one youth or another to embrace a girl behind door, to hold her on his lap in a chair in some secluded corner, to lie with her on a sofa, whispering intimate and unquestionably welcome things to her. And although at no time did he espy Hortense doing this – still, as he saw, she didn’t hesitate to sit on the laps of various boys or to whisper with rivals behind doors. And this for a time so discouraged and at the same time incensed him that he felt he could not and would not have anything more to do with her-she was too cheap, vulgar, inconsiderate.”

Biroq Gortenziyaning bir vaqtning o’zida bir necha yigitlar bilan uchrashib, aloqada bo’lishiga qaramay Klayd unga maftun bo’lib qolgan edi:

“Clyde watched the play of her mouth and the brightness of her eyes and the swiftness of her gestures without thinking so much of what she said – very little.”

Yuqoridagi misolda ham takror asoslangan yana bir badiiy san’at ya’ni parallel qurilmalar (parallel construction) ishlatilgan bo’lib, bu qisman parallel qurilma turiga kiradi. Bu bilan T.Drayzer matnning ohangdorligiga erishib, Gortenziyaning ko’rkam tashqi ko’rinishidan dalolat beradi.

“She was not at all backward at the same time in speaking of things that she needed or would like to have little things, - at first – a new powder puff, a lip stick, a box of powder or a bottle of perfume. She had yielded anything more to Clyde than a few elusive and evasive endearments-intimate and languorous reclinings in his arms which promised much but always came to nothing. She made so bold as to indicate to him at different times and in different ways, purses, blouses, slippers, stockings, a hat which she would like to buy if only she had money. And he, in order to hold her favor and properly ingratiate himself, proceeded to buy them...”

Yuqoridagi parchadan shu narsa ma’lum bo’ladiki, T.Drayzer takrorning anafora turi qo’llab, Gortenziyaning Klayd bilan faqatgina uning qizga turli xildagi narsalarni olib berishi uchun uchrashganini yanada ta’sirliroq qilib tasvirlaydi. Chunki avvaliga mayda chuyda narsalardan-upaga yangi momiq, lab bo’yog’i, bir quticha upa yoki atirdan boshlab, turli paytlarda turli bahonalar bilan sumka, bluska, tufli, paypoq, shlyapalardan gapirishga jur’at qilib, pulim bo’lsa jon deb olardim, derdi. O’shalarni qo’lga kiritganidan keyin ham sira yon bermas, yaqiniga uncha yo’latmas, gohida xumor holda quchoqlatgan bo’lardi. Uning bu xumor boqishlari ko’p narsalarni va’da qilsa ham, bular sira ro’yobga chiqavermas edi. Klayd ham shundan keyin uning ko’ngliga yoqib, ishonchini qozonish maqsadida, aytgan narsalarini yo’q demay olib berar edi. Shundan, Gortenziyaning o’z manfaatlari va xohishlari uchungina yigitlar bilan uchrashgan axloqi buzuq qiz ekanligi bilinib turadi va uning tabiatidagi bu salbiy xususiyatlarni namoyon qilishda avtor takrorlardan unumli foydalanadi.

Romanda muallif tomonidan mahorat ila yaratilgan yana bir ayol obrazi diqqatimizni o'ziga jalb qildi. Bu Klaydning Likurdagi amakisining rafiqasi Elizabet Griffiths xonimdir. Asarda Elizabet Griffiths xonim juda mehribon ona, ajoyib uy bekasi va doimo farzandlarining kelajagi va taqdiri haqida qayg'uradigan ayol siymosi sifatida gavdalanadi. Uning bunday xususiyatlari yozuvchi uni roman sahifalariga olib kirgan birinchi lavhalaridayoq namoyon bo'ladi:

“Near the dinner hour and by degrees the family assembling for its customary meal. On this occasion the preparations were of a more elaborate nature than usual... Knowing that he preferred a leg of lamb above many other things, after due word with Mrs.Truesdale, her homely but useful housekeeper she ordered lamb. And the appropriate vegetables and dessert having been decided upon, she gave herself over to thoughts of her eldest daughter Myra, who having graduated from Smith College several years before, was still unmarried.” (book II page 94)

Ushbu parchada sinonim takror ishlatilib, Elizabet Griffiths xonimning naqadar ajoyib uy bekasi ekanligi “house” va “home” so'zlarining takrorlanishi bilan ochib berilgan.

Garchi Griffiths xonimning o'g'li Gilbert Klaydni yoqtirmasa-da, bu xonim odob yuzasidan Klaydni uyiga taklif qilib, unga yaxshi munosabatda bo'ladi:

“No one was in the room at the moment but presently as Clyde fidgeted and looked about he heard a rustling of silk to the rear, where a great staircase descended from the rooms above. And from there he saw Mrs.Griffiths approaching him, a bland and angular and faded-looking woman. But her walk was brisk, her manner courteous, if non-committal, as was her custom always, and after a few moments of conversation he found himself peaceful and fairly comfortable in her presence.” (page 140)

Mazkur parchada ham muallif navbatdagi ayol siymosini yaratishda takrorlardan ustamonlik bilan foydalanib, Griffiths xonimning beozor, rangpar, oriqlik ayol ekanligini va uning davrasida bo'lgan har bir kishi o'zini bemalol va xotirjam his qilishi mumkinligi tasvirlangan.

“Amerika fojiasi” romanidagi voqealar rivojida alohida rol o’ynaydigan ayol obrazi bu-shak-shubhasiz Roberta Oldendir. Roberta romanning ikkinchi qismida Klayd amakisining fabrikasida ancha yuqori lavozimda bo’lgan paytda paydo bo’ladi va muallif uni quyidagicha tasvirlaydi:

“She had on a small brown hat that did not look any too new, and was pulled low over a face that was small and regular and pretty and that was holded by bright, light brown hair. Her eyes were of a translucent gray blue. Her little suit was commonplace and her shoes were not so very new-looking and quite solidly-soled. She looked practical and serious and yet so bright and clean and willed and passessed of so much hope and vigor that along with Liggett, who had first talked with her, he was at once taken with her. Distinctly she was above the average of the girls in this room. And he could not help wondering about her as he talked to her, for she seemed so tense, a little troubled as to the outcome of this interview, as though this was a very great adventure to her.”

Yuqoridagi misolda Robertaning go’zal tashqi ko’rinishi, ayni paytda xushchaqchaq, pokiza va samimiy ko’rinishi, qalbi umid va jo’shqinlikka to’la bo’lganidan, u bilan birinchi bo’lib gaplashgan, Ligetga ham, Klaydga ham darrov yoqib qolgan edi. Robertaning ushbu parchada sanab o’tilgan xususiyatlarini tasvirlash uchun T.Drayzer “and” bog’lovchisini ko’plab ishlatib polisindeton (polysyndeton) stilistik figurasini hamda takror badiiy san’atining anafora va epifora kabi turlarini qahramonning ishga qabul qilish suhbatida davomidagi hissiyotlarni ochib berish uchun qo’llagan.

Roberta fabrikaga ishga kirgandan so’ng juda kam fursat ishda boshqa qizlarga nisbatan Klaydning e’tiborini qozonadi:

“As he decided on sight, she was more intelligent and pleasing – more spiritual-though apparently not less vigorous, if more gracefully proportioned. As he saw her at first, she appeared to him to possess a charm which no one else in this room had, a certain wistfulness and wonder combined with a kind of self-reliant courage and determination which marked her at once as one possessed of will and conviction to a degree.

Yuqoridagi parchada adib yana bor takrorning anafora turidan foydalanib, Robertaning boshqalarga nisbatan aqlliroq, ko'rkamroq va olijanobroq ekanligini ko'rsatish, hamda qizning xushyorligi va sinchkovligi, ayni paytda dadilligi, keskinligi va o'ziga ishonchi zo'rliги hamda uning ishchanligi namoyon bo'lgan.

Robertaning o'ta soddaligi va boshqa qizlardek bo'yanmasa ham, o'zining tabiiy chiroyi quyidagi parchada takror badiiy san'ati orqali mohirona ochib berilgan.

“... She was prettier than anyone else. She never needed to paint her lips and cheeks like the foreign girls, whose faces at times looked like pink-frosted cakes. And how pretty were arms and neck-plump and grace fully designed. And there was a certain grace and abandon about her as she threw herself into her work as though she really enjoyed it.”

Biroq Roberta Klaydni sevilib qolgach o'zi tarbiyalangan muhitdan o'zgacha va unga xos bo'lmagan hatti-harakatlar qilib, o'z obro'sini to'kadi va Klaydga tomon ilk qadamini o'zi qo'yadi:

“Roberta turned, conscious that now was the time to decide whether she would encourage or discourage any attention on his part. At the same time she was almost faintingly eager to accept his attentions regardless of the problem in connection with them. His eyes! His hair! His hands! And then instead of rebuking or chilling him in any way, she only looked, but with eyes too weak and melting to mean anything less than yielding and uncertainty. Clyde saw that was hopelessly and helplessly drawn to him, as indeed he was to her.”

Robertaning Klayd bilan nikohsiz ishqiy munosabatlari natijasida Roberta butunlay o'zgarib, uning qat'iyligi irodasidan asar ham qolmaydi va u axloqsiz qizga aylanib, buni muallif takrorning o'zakli takror (courage and discourage) hamda anafora turi orqali mohirona yoritib bergan. Bizningcha, Robertaning hayotidagi fojiaga albatta Klayd aybdor, biroq bunda Robertaning ham o'ziga yarasha aybi bor, chunki agarda u Klayd bilan nikohsiz aloqa qilmay, o'zini erkin qo'ymaganda edi, bunday fojia ro'y bermagan bo'lar edi.

Asardagi yana bir ayol obrazi bu Sondra Finchli bo'lib garchi Klayd Robertani chin ko'ngildan sevsada, u Sondra Finchlining boyligi va uni atrofini o'rab turgan dabdaba uni butunlay maftun qilib qo'yadi va Klayd Sondraga bir ko'rishdayoq maxliyo bo'ladi:

“But the others-one was Sondra Finchley, so frequently referred to by Bella and her mother – as smart and veined and sweet a girl as Clyde had ever laid his eyes upon-so different to any he had ever known and so superior. She was dressed in a close – fitting tailored suit which followed her form exactly and which was enhanced by a small dark leather hat. She pulled it fetching low over her eyes. She wore a leather belt of the same color enriched her neck. She led a french bull and over one arm carried a most striking coat of black and gray checks... Indeed her effect on him was electric – thrilling...”

Yuqoridagi biz yana bir narsaning guvohi bo'lamiz. Ishimizda biz Robertaning Klayd huzuriga naqadar ayanchli holatda kelganini eslasak, u bilan Sondra o'rtasidagi farq yer va osmoncha ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Sondraning naqadar boy va zamonaviy ekanligini hamda uning Klaydga naqadar chuqur ta'sir ko'rsatganligini muallif takrorning anafora turidan mohirona foydalanib, ifodalilikning eng yuqori cho'qqisiga erishgan. Ushbu misolda takror stilistik figurasi orqali uning mag'rurligiga ham alohida e'tibor berilgan.

Sondraning Klaydga bo'lgan munosabatini esa biz quyidagicha izohlashimiz mumkin.

“He lifted his hands as though to caress her gently, yet holding them back, and at the same time dreamed into her eyes as might a devotee into those of a saint, then suddenly put his arms about her and in drew her close to him. She, thrilled and in part seduced by his words instead of resisting as definitely as she would have in any other case, now gazed at him, fascinated by his enthusiasms. She was so trapped and entranced by his passion for her that it seemed to her now as though she might care for him as much as he wished. Very, very much, if she only dared. He, too, was beautiful and alluring to her. He, too, was really wonderful, even if

he were poor-so much more intense and dynamic than any of these other youths that she knew here. ”

Yuqoridagi parchada Sondra va Klaydning bir-birlariga nisbatan kuchli ehtirolari avtor tomonidan takrorning anafora va sinonimik takror kabi turlaridan foydalangan va Sondraning Klaydni faqat uning jur’ati uchun sevib qolganligini hamda uning Sondrani o’rab turgan yigitlardan butunlay farq qilishi tufayli yoqtirganligi hamda Sondraning yengiltakligini ko’rishimiz mumkin.

Sondraning xudbinligi va barchaga o’z hukmini o’tkazmoqchi ekanligi kabi xususiyatlarini ochib berishda muallif takror stilistik usulining epifora turidan unumli foydalangan:

“- It was Sondra herself who chose to pick him up in her car. Her had actually succeeded in impressing her, and in a way that most flattered her vanity at the same time that it appealed to the finest trait in her – a warm desire to have some one, some youth like Clyde, who was at once attractive and of good social station, dependent upon her.”

Ushbu misoldan Sondraning o’zi uchun munosib qayliq qidirishi hamda uning Sondraga butunlay tobe bo’lishi kerakligi kabi xohishlari namoyon bo’lgan va takrorning epifora turiga urg’u berish orqali kuchli bo’yoqdorlikka erishilgan.

“Amerika fojiasi” romanida XX asr Amerika jamiyatidan ayollarga xos bo’lgan xususiyatlar asarda gavdalandirilgan Roberta bilan birga Klayd qo’l ostida ishlaydigan qizlardir. Ularning xarakteristik xususiyatlarini ochib berishda, muallif takror stilistik figurasining halqasimon takror va epiforalarni samarali qo’llagan.

“She was so pretty and cute. Yet she was a working girl, as he remembered now, too, - a factory girl, as Gilbert would say, and he was her superior. But she was so pretty and cute.” (Grace Marr)

O’sha davrda fabrikalarda asosan yosh va chaqqon qizlar ishga qabul qilinganligi, bois, ularning deyarli barchasi juda yoqimtoy bo’lib, ularning tashqi ko’rinishini tasvirlashda halqasimon takrorni qo’llab, kitobxon e’tiborini tortishga uringan, chunki asardagi ishchi qizlar (Robertadan tashqari) voqea-hodisalar rivojida asosiy rol o’ynamaydi, biroq ular XX asr ishchi ayollarining tipik (ya’ni

umumiy) xususiyatlarini mujassamlashtirganliklari uchun ham biz ularni o'z tahlillarimizga kiritishni lozim deb topdik.

“The other girls would see at once. And since they all plainly felt that he was too good or too remote for them, they would at once note that he was making an exception in her case and would put their own interpretation on it. And she knew the type of a girl who worked in the Griffiths stamping room would put but one interpretation on it.”

Ushbu parchada esa epifora ishlatilib, fabrika qizlarining o'ta qiziquvchanliklari hamda hech narsani ko'zdan qochirmasliklari kabi xususiyatlari namoyon bo'lgan. Quyidagi parchada esa:

“Thus, one noontime, coming back from the office lunch downstairs a little earlier than usual, he found her and several of the foreign family girls as well as four of the American girls, surrounding Polish Mary, one of the gayest and roughest of the foreign family girls who was explaining.

He was so youthful, so brisk, so attractive. And so interested in her too yes, that was plain. It was strong to think that he would be interested in her – or to try to attract him by any least gesture of hers, since he was so important a person here far above her.”

Yuqoridagi parchada ham takrorning epifora turi qo'llanilgan va unda fabrika ishchi qizlarining o'z rahbarlari haqidagi fikrlari bayon qilingan. Takror orqali esa ularning fikrlari kitobxon diqqatini jalb qilib, ushbu fikrlarning ta'sirini kuchaytirish uchun adib tomonidan san'atkorona tarzda foydalanilgan.

“Amerika fojiasi” asarida garchi roman sahifalarida ko'p ko'rinmagan bo'lsa-da, bizni e'tiborimizni Klaydning amakkivachcha singillari Bella va Mayra tortdi. Chunki ularning o'ziga xos tabiatini ochib berishda ham muallif takror stilistik usulini mohirlik bilan qo'llagan.

Ayol siymosini yaratishda Drayzerning o'ta noyob iste'dodi Mayra obrazida namoyon bo'ladi:

“Her nose was too long. Her eyes were too close-set, her chin not sufficiently rounded to give her a girlish and pleasing appearance. For the most part she

seemed too thoughtful and studious – as a rule not interested in the ordinary social life of that city. Neither did she possess that savoir faire, let alone that peculiar appeal for men, that peculiar for men, that characterized some girls even when they were not pretty. As her mother saw it. She was too critical. She was too intellectual, having a mind that was rather above the world in which she found herself.”

Bizningcha, Mayra boshqa ayol siymoyalar nisbatan o'zgacha tabiatga ega va aynan uning aqliligi hamda donoligini tasvirlashda, garchi uning tashqi ko'rinishi xunuk bo'lishiga qaramay, T.Drayzer takrorning anafora turiga murojaat qilgan va kitobxonlarining xotirasida qoladigan obraz yaratgan. Mayraning o'z davri qizlaridan farqi shundaki, u o'ta bilimdon bo'lib, o'tkinchi xoyu-havaslariga berilmay, axloq normalaridan chetga chiqmaydi.

Endi Mayraning singlisi Bellaga to'xtaladigan bo'lsak:

“Contrasted with her sister, who was tall and dark and rather sallow, Bella, though shorter, was far more gracefully and vigorously formed. She had thick brown – almost black – hair, a brown and olive complexion tinted with red and eyes brown and genial, that blazed with an eager, selking light. She possessed vitality and animation. She had graceful and active arms and legs. She was plainly given to liking things as she found them enjoying life as it was and hence, unlike her sister, she was unusually attractive to men and boys - to men and women, old and young a fact which her father and mother well knew.”

Bella opasidan ham tashqi ham ichki tomondan tubdan farq qilishiga urg'u berishda va uning o'ta sho'x va faol tabiatini ochib berishda muallif anafora unumli foydalangan. Biroq Bella garchi sho'x va o'ta qiziquvchan bo'lishiga qaramay, opasidek sharmandali va ayanchli holatlarga tushmaydi. Bu ikki opa-singil Mayra va Bella timsollari orqali biz ularni asardagi boshqa axloqi buzuvchi qizlarga qarshi qo'yimoqchimiz. Chunki yuqorida, biz tahlil qilgan deyarli barcha ayol obrazlari Elvira va Elizabet Griffiths xonimlardan tashqari o'tkinchi xoyu-havaslariga berilib, aldanib qolgan va jamiyatdagi axloq normalari buzgan ayol

obrazlaridir. Bularga Esta Griffiths, Roberta Olden, Gortenziya Brigs, Sondra Finchli va fabrikada ishlovchi ba'zi bir qizlar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, T.Drayzer o'zining shoh asari "Amerika fojiasi" da ayol siymosini yaratishda takrorlardan ekspressivlikni ifodalashda yuksak mahoratga erishgan. Bunday ayol obrazlariga hayot zarbalariga dosh berib kelgan, qat'iyatli va irodali Elvira Griffiths xonimni, eri va bolalariga butun umrini baxshida qilgan Elizabet Griffiths xonimni, yo'ldan adashgan va o'tkinchi yoshlik xoyu-havaslariga berilib, oxir-oqibat ayanchli holatga tushgan irodasiz Esta Griffithsni, o'y va fikrlari faqat yigitlarni boshini aylantirib, ulardan narsa undirishga moyil bo'lgan Gortenziya Brigsni, o'zligidan kechib, boy va faravon yashayman deb, fojiali o'lim topgan Roberta Oldenni, hammaga o'z hukmini o'tkazishni yoqtiradigan, erka va tantiq Sondra Finchli hamda opa-singil Mayra va Bellalarni misol keltirishimiz mumkin.

Asarda Drayzer ayol obrazlarning o'y-fikrlari hamda tuyg'ularini yanada ta'sir doirasini kuchaytirish uchun takror stilistik vositasining anafora, epifora, o'zakli takror, topilma takror, halqasimon takror kabi turlaridan san'atkorona mohirlik bilan foydalangan.

## Xulosa

Magistrlik dissertatsiyaga xulosa yasaydigan bo'lsak, T.Drayzerning "Amerika fojiasi" asari XX asr jahon adabiyotining eng sara va nodir ijod namunalari qatoridan allaqachon o'zining munosib o'rnini egallaganini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Chunki bu roman XX asrning I choragida qanday katta qiziqish va shov-shuv bilan kitobxon tomonidan kutib olingan hamda mutolaa qilingan bo'lsa, bugunni XXI asrda ham o'z qadr-qimmatini zarracha bo'lsa ham yo'qotgan emas.

Biz o'zimizning tadqiqotimizda mazkur asardagi ayol obrazlar Elvira Griffiths xonim, Esta Griffiths, Gortenziya Brigs, Elizabet Griffiths xonim, Roberta Olden, Sondra Finchli, Mayra va Bella Griffithslar hamda fabrikadagi ishchi qizlarning xulq-atvori, ichki va tashqi olamini tasvirlashda muallif tomonidan takrorlarining anafora, epifora, o'zakli takror, topilma takror, halqasimon takror kabi turlaridan naqadar mahorat bilan qo'llanganligini guvohi bo'ldik.

Teodor Drayzer har bir ayol siymosini o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda takror stilistik usulining ekpressivlik ya'ni ifodalilik vazifasidan unumli foydalanib, betakror va o'ta murakkab harakterdagi obrazlarni yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Masalan "Amerika fojiasi" romanidagi ikkita Griffiths xonimlar ya'ni Elvira va Elizabetlarning o'xshash tomoni shundaki, ular butun borliqlarini farzandlari va oilalariga bag'ishlagan fidoiy va jonkuyar ayol timsollardir. Ularning aynan shu xususiyatlarini kitobxonga yetkazishda, muallif takrorning anafora va epifora turlarini qo'llab, ularning o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berishni uddalagan.

Romandagi voqealar rivojida ikki ayol obraz Sondra va Robertalarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini tasvirlashda ham takror stilistik usulidan foydalanib, har ikkala qahramonning hissiy dunyosini ochib berishga erishgan.

Robertaning Klaydga bo'lgan munosabati va muhabbati uning taqdiridagi fojiaga olib borgan. Asarda yana bir ayol obrazi Esta Griffithsning taqdiri ham Robertanikiga o'xshab ketadi. U ham Robertadek qat'iyatsizlik va irodasizlik qurboni bo'ladi. Roberta va Esta sodda va ehtiroslarini jilovlay olmaydigan,

birovga suyanib, mute bo'lib yashash hissi o'ziga bo'lgan ishonch hissidan ustunlik qilgan obrazlar bo'lib, ularning aynan hissiyotga beriluvchanlik xususiyatini ochib berishda T. Drayzer takrorlardan ustalik bilan foydalangan va yuksak darajadagi bo'yoqdorlikka erishgan.

Sondra Finchlining kalondimog', xudbin, taniq va erka qiz bo'lib, Klaydni faqat ko'ngilxushlik uchun sevgani kabi xususiyatlarini T.Drayzer shunday mahorat bilan tasvirlaydiki, garchi u hech qanday jinoyat qilmagan bo'lsa-da, kitobxon unga nisbatan ijobiy baho bermaydi. Sondraning eng salbiy xususiyati ya'ni ko'ngilxushlikka o'chligi kabi illatini o'quvchiga chuqurroq yetkazish uchun ham muallif takrorlardan foydalangan. Chunki takror stilistik usuli qahramonlarning o'ta hissiyotga beriluvchanlik xususiyatini namoyon qilishda alohida o'ringa ega.

Sondra Finchliga boshqa ayol obrazlarga nisbatan eng yaqini Gortenziya Brigsdir. Bu qahramonning ko'ngilxushlikka moyilligi va turli yigitlar bilan uchrashib, undan foyda olishi ularning tabiatidagi o'xshashlikdir. Aynan shu xususiyatlarini yoritishda T.Drayzer takrorning ekspressivlikni ifodalashdagi iste'dodiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Л., 1984.
2. Артаманов С.Д. “История зарубежной литературы XVII-XIX в.в”. Москва, 1978.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966.
4. Азимов К., Каюмов О. “Чет эл адабиёти тарихи”. Тошкент, “Укитувчи”, 1987.
5. Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. Тошкент, “Укитувчи”, 1995.
6. Батулин С. “Портреты американских писателей” М.,1979.
7. Болтабоев Х. “Наср ва услуб”. Тошкент, “Фан”, 1992.
8. Гальперин И.Р. Очерки по стилистики английского языка. М., Лит.на иностр.языках, 1956.
9. Головин Н. Основы культуры речи. М., 1980.
- 10.Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. М., 1961.
- 11.Зарубежная литература хх века (хрестоматия). Москва, “Просвещение”, 1980.
- 12.Засурский Я.Н. Теодор Драйзер. М., 1977.
- 13.Засурский Я.Н. Теодор Драйзер: жизнь и творчество. М., 1977.
- 14.Засурский Я.Н. Американская литература хх века. М., 1984.
- 15.Иванова Т.Т., Брандес О.Т. Стилистическая интерпретация текста. М., “Высшая школа”, 1989.
- 16.Коробкова Ю. “Сравнительное учение Американских и английских писателей и поэтов”. М., “Берег”, 1978.
- 17.Клименко А. Проблемы стиля в английской литературе первой трети XIX века. Л., Изд.:ЛГУ, 1959.
- 18.Левковская К.А. Теория слова, принципы ее построения и аспекты изучения лексического материала. М., 1962.
- 19.Меньшова И. “Американская литература хх века”. М., “Красный луч”, 2000.

20. Миртожиев М. Узбек тилида полисемия. Тошкент, 1975.
21. Набаков В. “Из жизни великих писателей”. Екатеринбург, “Красный луч”, 2000.
22. Николаев А. “Драйзер-великий американский писатель”. Москва, “Просвещение”, 1999.
23. Парчевская Б. Теодор Драйзер. М., “Книга”, 1979.
24. Пелевина Н.Ф. Стилистический анализ художественного текста. Л., “Просвещение”, 1980.
25. Потебня А.А. Из списков по русской грамматике. Харьков, 1899.
26. Разинская Н.М. Стилистика английской научной речи. М., 1972.
27. Разинкина Н.М. Функциональная стилистика английского языка. Москва, “Высшая школа”, 1991.
28. Самохвалов Н.Н. История американской литературы. М., “Просвещение”, 1971.
29. Самохвалов Н.Н. Писатели США о литературе. М., “Прогресс”, 1982.
30. Скребнев Ю.М. Очерк теории стилистики. М., 1975.
31. Сухаренко Р. “Теодор Драйзер и его соотечественники”. Москва, “Просвещение”, 1999.
32. Султон И. “Хаёт, адабиёт, махорат”. Тошкент, “Укитувчи”, 1962.
33. Султон И. “Адабиёт назарияси”. Тошкент, “Укитувчи”, 1980.
34. Файзуллаев Н. “Жахон адабиёти”. Тошкент, 1997.
35. Galperin I.B. Stylistics. Moscow, 1977.
36. Galperin I.B. An essay in stylistic analysis. Moscow, 1968.
37. Guterman M.G. and others. Reader in modern American literature. М., 1974.
38. Gerber Ph. Theodore Dreiser. New-York, Twayne, 1964.
39. “American literature of the xx th century.” A group of writers. USA, “Boston University”, 2005.
40. “American writers and poets.” USA, “Longman Publishing House”, 2005.

41. Bronkovich T. "Dreiser and his contemporaries". USA, "New-York Publishing House", 2005.
  42. Duoving C. "Sketches on Dreiser". L., "London Publishing House", 2003.
  43. "Great writers of XIX-XX th centuries". USA, "Mc Millan", 2004/
  44. Boynazarov F. "Jahon adabiyoti" Toshkent, 2006-yil.
  45. "Ingliz va o'zbek tillarida takror stilistik vosita sifatida" M. Saidova. Filologiya va metodika masalalari. Buxoro-2006.
  46. Katheryn Van Spanckeren. American literature. USA, Department of State, 2000.
  47. K. Vanspenkerin Amerika adabiyotining asoslari. Toshkent, 1994.
  48. Maltzev V.A. Essays on English stylistics. Minsk, 1984.
  49. Newlin, Keith (2003) "A Theodore Dreiser Encyclopedia". Greenword Publishing Group.
  50. Qayumov L. "Chet el adabiyoti tarixi". Toshkent, "O'qituvchi" 1987-yil, 1-qism.
  51. Qilichev E.R., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 2002.
  52. Qo'chqortoyev I.Q. Badiiy nutq stilistikasi. T., 1975.
  53. Qo'ng'urov R. O'zbek tili stilistikasi. Samarqand, 1976.
  54. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
  55. Shomaqsudov Sh. Va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. T., 1983.
  56. Soshalskaya E.G., Prokhorova V.I. Stylistic Analysis. Moscow, 1976.
  57. Theodor Dreiser "A book about myself". New-York, 1922.
  58. Theodore Dreiser. Essays and Articles. Moscow, 1951.
  59. Thomas P. Riggio "Biography of Theodore Dreiser", 2000.
  60. Webster's New World Thesawues. New American Literature. New-York, 1975.
- Badiiy adabiyotlar:
61. Theodor Dreiser "An American Tragedy". Moscow, 1951.

62. Teodor Drayzer “Amerika fojiasi” 1-qism. O’zbek tili tarjimasi, Toshkent, “G’afur G’ulom” nashriyoti 1976.

63. Teodor Drayzer “Amerika fojiasi” 2-qism. O’zbek tili tarjimasi, Toshkent, “G’afur G’ulom” nashriyoti 1976.

Internet saytlari:

64. [http:// xroads. Virginia. Edu/~ Hyper/Dreiser/](http://xroads.virginia.edu/~Hyper/Dreiser/).

65. [http:// xroads. Virginia. Edu/~ Hyper /Realism/](http://xroads.virginia.edu/~Hyper/Realism/).

66. [www.google.com](http://www.google.com).

67. [www.yahoo.com](http://www.yahoo.com).

68. [www.literature.com](http://www.literature.com).

69. [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com).

70. [www.altavista.com](http://www.altavista.com).